

Abdulla Qodiriy nomli Jizzax Davlat pedagogika instituti Pedagogika-psixologiya fakul'teti Pedagogika – psixologiya yo`nalishi IV-bosqich talabasi Ashurova Feruzaning “Internetning o`quvchilar ma`naviy- axloqiy hayotiga ta`siri” nomli bitiruv malakaviy ishiga

TAQRIZ

Hozirgi kunda internet shiddat bilan rivojlanmoqda. Internetning bunday rivojlanishi inson ongini yanada rivojlanishiga olib kelmoqda. Hozirgi zamon yoshlari o`z aql-zakovatlari bilan avvalgi yoshlardan tubdan farqlanadilar. Bu zamonamizning har tomonlama rivojlanib borayotganidan aslida. Inson aqli, inson qo`li yetmagan joy qolmadi. Aqliy kamolot faqat yaxshilikka xizmat qilsa, jamiyatimiz yaxshi tomonga qarab o`zgarib boraveradi. Internet aslida yaxshi tomonga xizmat qilishi uchun yaratilgan, lekin internetdan yomon tomonga ham foydalanilmoqda. Internetdan ko`plab buzg`unchi g`oyalar ham kirib kelmoqda va bu yoshlarning ongiga yomon ta`sir etib, axloqini buzmoqda. Psixologiyada aql-zakovat, ya`ni intellekt muommosi olohida ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan ist`edod, qadryat, ma`naviyat hamda aql zakovat etnopsixologik nuqtqi- nazaridan millat ko`zgusi hisoblanadi. Aql zakovat insoniyat yashab turgan jamiyatning ruhiy-manaviy omilidir. Binobarin, aqliy imkoniyat mazmuni va mohiyati bevosita mujassamlashgan bo`ladi. Jamiyat takomillashuvining bosh omili bu - barkamol avlod, keng ko`lamli, teran fikrlovchi, bilimdon shaxslarning shakillanishidir.

Shu sabab hozirgi kunda Respublikamizda bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Hozirgi kunda yoshlar uchun har tomonlama tokomillashuvini shu jumladan intellektual rivojlanishni taminlash uchun yetarli sharoitlar yaratilgan. Barcha ta`lim muassasalari maktabgacha ta`lim muassasalari, maktablar, o`rta mahsus kasb hunar ta`limi oily dargohlar kompyutorlar bilan taminlangan. Barcha ta`lim muassasalari o`qitishning eng yangi texnik jihozlari bilan taminlangan. Yosh avlodning intellektual jihatdan rivojlanishi uchun yetarlicha sharoitlar yaratildi. Jumladan Raspublikamiz Prezidenti I. A.Karimov 2012 yil 17 fevralda «Yuksak bilimli va intellektual avldodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muxim sharti» mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilishi marosimida 48 dan ziyod davlatlardan kelgan

mexmonlarga tashakkur bildirib, O'zbekistonda bugungi kunda shakllangan ta'lim tizimi islohatidagi tajribalarimizni muxokama etish biz uchun yuksak sharaf ekanligini ta'kidlab o'tdilar. Shuningdek yurtimizdagi ta'lim tizimi haqida 12 yillik majburiy bepul ta'lim, darslar 7 tilda olib borilishi – 1500 dan ortiq kolej va liseylardagi shart – sharoitlar, oliygohlar hamda yuksak texnologiyalar haqida so'zladilar. Anjuman qatnashchilari O'zbekiston ta'lim tizimiga tan berdilar. Bundan ko'rinib turibdiki yoshlarning intellektual rivoji ta'minlangan. Faqatgina yoshlar bunday imkoniyatlardan foydalana olmoqlari kerak.

Talaba Ashurova Feruzaning mavzusi ham ana shunday muammoli mavzulardan biri hisoblanadi. Bitiruv ishi kirish, 2 bob, 7 ta paragraf, tajriba sinov natijalari, xulosa va tavsiyalardan iboratdir. Tadqiqotning kirish qismida muoammoning dolzarbligi, maqsadi va vazifalari, tadqiqotning metodlari va tadqiqot olib borish obektlari belgilab berilgan.

Birinchi bobda internetning tarixi va rivojlanishi, internetdan foydalanish madaniyati, axborot kommunikation texnologiyalar va ta'lim, internetdagi ijtimoiy tarmoqlari va o'quvchi yoshlar tarbiyasi masalasi kabi masalalar yoritilgan.

Ikkinchi bobda ta'lim muassasalarini rivojlanishiga oid internetdan olingan ma'lumotlar, internet iskanjasi yoki internetning ijodiy faoliyatga ta'siri, o'quvchilarning kompyuter o'yinlari va uyali telefonlarga bog'lanib qolishlarining ayrim sabablari o'rganildi.

Ashurova Feruza tomonidan berilgan tavsiyalar o'quvchilar, o'qituvchilar, ota-onalar va maktab psixologlari uchun amaliy qo'llanma bo'lib xizmat qiladi deb o'ylayman. Bitiruv malakaviy ishini ximoyaga tavsiya etaman.

Taqrizchi:

15-sonli maktab direktori Sh.Rasulova

Abdulla Qodiriy nomli Jizzax Davlat pedagogika instituti Pedagogika-psixologiya fakul'teti Pedagogika – psixologiya yo`nalishi IV-bosqich talabasi

Ashurova Feruzaning “Internetning o’quvchilar ma’naviy- axloqiy hayotiga ta’siri” nomli bitiruv malakaviy ishiga ilmiy rahbar

X U L O S A S I

Ashurova Feruzaning tadqiqot ishining dolzarbligi internetning o’quvchilar ma’naviy- axloqiy hayotiga ta’sirini muommosi bo’lib, internetnigo’quvchilar ma’naviy-axloqiy hayotiga ijobiy va salbiy ta’sirini o’rganishni o’z ichiga oladi. Ushbu bitiruv malakaviy ishi ana shu muammoni o’rganishga urinishlardan biri hisoblanadi.

Muallif qo’yilgan maqsadga erishishda “Internet hozirgi kunning global muammosi” degan asosiy qoidaga va o’quvchilarni ma’naviy-axloqiy rivojlantirishga doir muommolarga tayangan holda yondashgan. Ishda ko’rilayotgan tushunchalarning pedagogik psixologik asoslari bayon etilgan. Nazariy qism mazmunli taqdim etilgan muallif o’z ishida psixologiya, pedagogika fanlari bo’yicha asosiy nazariy tayorgarligini, mustaqil ishlash hamda psixologik masalalarni ijodiy hal eta olish ko’nikmalarini namoyon eta olgan.

Tadqiqotning birinchi bobi “Internetning o’quvchilar ma’naviy-axloqiy hayotiga ta’sirining nazariy asosari” deb nomlanib, unda internetning tarixi va rivojlanishi, internetdan foydalanish madaniyati, axborot kommunikation texnologiyalar va ta’lim, internetdagi ijtimoiy tarmoqlari va o’quvchi yoshlar tarbiyasi masalalari ko’rib chiqilgan. Mavzuga oid adabiyotlar tahlil etilgan. Tadqiqot ob’yekti etib belgilangan maktab o’quvchilarining xuquqiy madaniyatining shakllanishi tahlil etilgan.

Tadqiqotning ikkinchi bobi “Internetning o’quvchilar ma’naviy-axloqiy hayotiga ta’sirini o’rganish” deb nomlanib, unda ta’lim muassasalarini rivojlanishiga oid iternetdan olingan ma’lumotlar, internet iskanjasi yoki internetning ijodiy faoliyatga ta’siri, o’quvchilarning kompyuter o’yinlari va uyali telefonlarga bog’lanib qolishlarining ayrim sabablari kabi masalalar o’rganilgan. Tadqiqotchi tamonidan Jizzax shahar 15 – sonli maktabda o’tkazilgan psixologik tarjiba nitajalari muallifga tanlangan mavzuni o’rganish imkonini bergan.

Ashurova Feruza tomonidan bajarilgan bitiruv malakaviy ishi, xususan ishlab chiqilgan, nazariy qism ota – onalar, o'qituvchilar, o'quvchilar, psixologlar uchun muhim amaliy ahamiyatga ega. Ish bitiruv malakaviy ishiga qo'yiladigan barcha talablarga to'liq javob beradi.

Ilmiy rahbar:

N.Abdugodirova

Abdulla Qodiriy nomli Jizzax Davlat pedagogika instituti Pedagogika-psixologiya fakul'teti Pedagogika – psixologiya yo`nalishi IV-bosqich talabasi Ashurova Feruzaning “Internetning o`quvchilar ma`naviy- axloqiy hayotiga ta`siri” nomli bitiruv malakaviy ishiga

TAQRIZ

Bugun internet nima ekanligini deyarli hamma yaxshi biladi. Negaki u kundalik hayotimizning barcha jabxalariga kirib keldi va muhim o`rin egalladi. Biroq, mazkur jaxon axborot to`rida qisqa muddat ichida paydo bo`lib, xozirda shiddat bilan rivojlanib borayotgan va millonlab insonlarning xatti-harakati, dunyoqarashi, boshqa odamlarga nisbatan munosabati, siyosiy-ijtimoiy ta`bi, qolaversa, taqdiriga bevosita ta`sir etayotgan ijtimoiy tarmoqlar haqida nimalarni bilamiz? Ularning qanday xuquqiy asoslari mavjud?

Ta`rif beradigan bo`lsak, internetdagi ijtimoiy tarmoq bu – turli maqsadlar uchun har-xil ijtimoiy munosabatlarni o`rnatish, rivojlantirish va bir maromda olib borishga mo`ljallangan onlayn xizmat yoki veb-saytdir.

AQShlik mutaxassislarning bildirishicha, jaxon mamlakatlarida internitdan foydalanuvchilar sarf etayotgan umumiy vaqtning o`rtacha har oltinchi daqiqasi aynan ijtimoiy tarmoqlarga to`g`ri kelmoqda. Bunday tarmoqlardan foydalanuvchilarning umumiy soni esa bugungi kunda 1 milliard 200 million kishidan oshib ketdi, ya`ni Yer sharidagi insonlarning deyarli har oltinchisi ijtimoiy tarmoqlardan birining foydalanuvchisi hisoblanadi. Yana bir diqqatli jihati – ushbu raqam kuniga 200-250 ming kishiga ko`paymoqda. Ma`lumot o`rinida aytish mumkinki, hozirda qariyb 1 milliard 800 million kishi yoki sayyoramizdagi har to`rtta odamdan bittasi “O`rgimchak to`ri” xizmatidan foydalanadi.

Ijtimoiy tarmoqlar ularning tashkilotchilari uchun, eng avvalo, muhim daromad manbai hisoblanadi. Cheksiz axborot ummonini pulga aylantirish ishtiyoqi bunday tarmoq egalarining juda tez boyib ketishiga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, bunday axborot deyarli tekinga, odamlarning o`zi tomonidan ijtimoiy tarmoqlarga yuklanayotgani ham ushbu yo`nalishni eng kamchiqim beznisiga aylantiradi. Masalan, internetdagi ijtimoiy tarmoqlarning eng yirigi – “Feysbuk”

(Facebook)da 850 millionta profil-foydalanuvchilarning shahsiy sifatlari qayt etilgan bo'lib, Buyuk Britaniyada nashr etiladigan "The Economist" jurnalining ma'lumotlariga ko'ra, u jahon mamlakatlarining aksariyatida urf bo'lgan hamda sof daromadi 2011 yilda 1 milliard AQSh dollaridan ortgan. Kompaniyaning bozordagi narxi 75-100 milliard dollargacha baholanmoqda. "Feysbuk" muallifi va rahbari 27 yoshli Mark Suckerberg esa jahondagi eng yosh milliarder hisoblanadi. Uning ixtirosi allaqachon millionlab kishilarning "Onlayn pasport" ga aylanib ulgurdi.

Bitiruv malakaviy ishda internetning o'quvchilar ma'naviy- axloqiy hayotiga ta'sirini aniqlash va undan olingan ma'lumotlarni amalda qo'llashni maqsad qilib olingan.

Bitiruv malakaviy ishning vazifasiga internetning tarixi va rivojlanishi hamda internetdan foydalanish madaniyati, axborot kommunikation texnologiyalar va ta'lim tizimi masalalari, internetdagi ijtimoiy tarmoqlari va o'quvchi yoshlar tarbiyasi masalasi, ta'lim muassasalarini rivojlanishiga oid iternetdan olingan ma'lumotlarni o'rganish, internet iskanjasi yoki internetning ijodiy faoliyatga ta'sirini tahlil qilish, o'quvchilarning kompyuter o'yinlari va uyali telefonlarga bog'lanib qolishlarining ayrim sabablarini izlash kabilar kiritilgan.

Bitiruv malakaviy ishining birinchi bobida internetning tarixi va rivojlanishi, internetdan foydalanish madaniyati, axborot kommunikation texnologiyalar va ta'lim, internetdagi ijtimoiy tarmoqlari va o'quvchi yoshlar tarbiyasi masalalari ko'rib chiqilgan.

Ikkinchi bob yuquridagi nazariy bilimni asoslashga qaratilgan. Testlar yordamida talabalar o'rganilgan va taxlil qilingan. Tadqiqot ishini Jizzax shaxridagi 15-sonli maktabda olib borilgan. Tadqiqod testlari xulosalangan va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Ishlab chiqilgan tavsiyalar ota-onalar, o'qituvchilar, psixologlar uchun muhim qo'llanma sifatida xizmat qiladi degan umiddamiz. Bitiruv malakaviy ishini himoyaga tavsiya etaman.

Taqrizchi:

katta o'qit.D.Abdurahobova

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
PEDAGOGIKA - PSIXOLOGIYA FAKUL'TETI
PEDAGOGIKA - PSIXOLOGIYA KAFEDRASI

“Himoya qilishga ruxsat beraman”
Pedagogika - psixologiya fakul'teti
dekani v/b _____ dots.R.Abdurasulov
“ _____ ” _____ 2014 y.

5140800 – Pedagogika – psixologiya yo'nalishi bo'yicha bakalavr
darajasini olish uchun

INTERNETNING O'QUVCHILAR MA'NAVIY- AXLOQIY
HAYOTIGA TA'SIRI
MAVZUSIDA BAJARILGAN

BITIRUV MALAKAVIY ISH

Bajaruvchi: Ashurova Feruza

Ilmiy rahbar: N.Abduqodirova

Ishni himoyaga tavsiya etaman o'qituvchi N.Abduqodirova _____

(imzo)

BMI Pedagogika - psixologiya kafedra
yig'ilishining qarori bilan (Qaror №10, .05.2014y)
himoyaga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri: p.f.n. I.To'raqulova _____

(imzo)

JIZZAX - 2014

MUNDARIJA

Kirish	3
I-bob. Internetning o'quvchilar ma'naviy-axloqiy hayotiga ta'sirining nazariy asosari	7
1.1. Internetning tarixi va rivojlanishi.....	7
1.2. Internetdan foydalanish madaniyati.....	14
1.3. Axborot kommunikation texnologiyalar va ta'lim.....	18
1.4. Internetdagi ijtimoiy tarmoqlari va o'quvchi yoshlar tarbiyasi masalasi.....	28
II-bob. Internetning o'quvchilar ma'naviy-axloqiy hayotiga ta'sirini o'rganish	34
2.1. Ta'lim muassasalarini rivojlanishiga oid internetdan olingan ma'lumotlar.....	34
2.2. Internet iskanjasi yoki internetning ijodiy faoliyatga ta'siri.....	37
2.3. O'quvchilarning kompyuter o'yinlari va uyali telefonlarga bog'lanib qolishlarining ayrim sabablari.....	47
Xulosa va tavsiyalar	55
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	
Ilovalar	

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Hozirgi kunda internet shiddat bilan rivojlanmoqda. Internetning bunday rivojlanishi inson ongini yanada rivojlanishiga olib kelmoqda. Hozirgi zamon yoshlari o'z aql-zakovatlari bilan avvalgi yoshlardan tubdan farqlanadilar. Bu zamonamizning har tomonlama rivojlanib borayotganidan aslida. Inson aqli, inson qo'li yetmagan joy qolmadi. Aqliy kamolot faqat yaxshilikka xizmat qilsa, jamiyatimiz yaxshi tomonga qarab o'zgarib boraveradi. Internet aslida yaxshi tomonga xizmat qilishi uchun yaratilgan, lekin internetdan yomon tomonga ham foydalanilmoqda. Internetdan ko'plab buzg'unchi g'oyalar ham kirib kelmoqda va bu yoshlarning ongiga yomon ta'sir etib, axloqini buzmoqda. Psixologiyada aql-zakovat, ya'ni intellekt muommosi olohida ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan ist'edod, qadryat, ma'naviyat hamda aql zakovat etnopsixologik nuqtqi- nazaridan millat ko'zgusi hisoblanadi. Aql zakovat insoniyat yashab turgan jamiyatning ruhiy-manaviy omilidir. Binobarin, aqliy imkoniyat mazmuni va mohiyati bevosita mujassamlashgan bo'ladi. Jamiyat takomillashuvining bosh omili bu - barkamol avlod, keng ko'lamli, teran fikrlovchi, bilimdon shaxslarning shakillanishidir.

Shu sabab hozirgi kunda Respublikamizda bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Hozirgi kunda yoshlar uchun har tomonlama tokomillashuvini shu jumladan intellektual rivojlanishni taminlash uchun yetarli sharoitlar yaratilgan. Barcha ta'lim muassasalari maktabgacha ta'lim muassasalari, maktablar, o'rta mahsus kasb hunar ta'limi oily dargohlar kompyutorlar bilan taminlangan. Barcha ta'lim muassasalari o'qitishning eng yangi texnik jihozlari bilan taminlangan. Yosh avlodning intellektual jihatdan rivojlanishi uchun yetarlicha sharoitlar yaratildi. Jumladan Raspublikamiz Prezidenti I. A.Karimov 2012 yil 17 fevralda «Yuksak bilimli va intellektual avldodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muxim sharti» mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilishi marosimida 48 dan ziyod davlatlardan kelgan mexmonlarga tashakkur bildirib, O'zbekistonda bugungi kunda shakllangan ta'lim

tizimi islohatidagi tajribalarimizni muxokama etish biz uchun yuksak sharaf ekanligini ta'kidlab o'tdilar. Shuningdek yurtimizdagi ta'lim tizimi haqida 12 yillik majburiy bepul ta'lim, darslar 7 tilda olib borilishi – 1500 dan ortiq kolej va liseylardagi shart – sharoitlar, oliygohlar hamda yuksak texnologiyalar haqida so'zladilar. Anjuman qatnashchilari O'zbekiston ta'lim tizimiga tan berdilar. Bundan ko'rinib turibdiki yoshlarning intellektual rivoji ta'minlangan. Faqatgina yoshlar bunday imkoniyatlardan foydalana olmoqlari kerak.

Jamiyat taraqqiyoti teran fikrlovchi, aqlli shaxslar rivojiga bog'liq bo'lmoqda, bunda jamiyat inson intellekti rivojini ta'minlasa, inson ana shunday jamiyat rivojlantirgan intellekti bilan jamiyatni taraqqiy ettiradi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, intellekt rivojining psixologik jihatlari mavjud. Bunday psixologik jihatlarga inson ongining rivoji, intellektning paydo bo'lishi hissiy intellekt masalalari, jins va intellekt, intellekt yetishmovchiligi, intellektning tuzilishi masalalari, intellekt tarixi kabilar kiradi.

Halqaro Ilmiy-amaliy konferensiya ishtirokchilari O'zbekistonning ta'lim tizimini isloh qilish borasidagi tajribasini o'rganib O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning nutqida bayon etilgan ta'lim tizimini isloh qilishga oid prensip va yondashuvlarni to'liq qo'llab-quvvatlaydilar, alohida e'tirof etib, chuqur o'rganish lozimligini ta'kidlaydi.

Xalqaro konfrensiya ishtirokchilari O'zbekistonning quyidagi yo'nalishlar bo'yicha tajribasini alohida e'tirof etish va chuqur o'rganish lozimligini ta'kidlaydi:

- Respublikaning har bir o'quv yurtida optik-tolali aloqa linyalari asosida qurilgan yagona Ziyonet axborot-ta'lim tarmog'iga ulangan axborot-resurs markazlari tashkil etilgan. Bu o'quvchilarning zarur axborotlardan foydalanishi, vidiokonferensiyalar, seminarlar o'tkazish va o'quv mashg'ulotlari uchun multimedia auditoriyalarini tashkil etishda keng sharoitlar yaratish imkonini beradi. Bu o'z navbatida, O'zbekiston ta'lim tizimida texnologiyalar va zamonaviy media hamda telekommunikasiya vositalaridan foydalanishga xizmat qilmoqda.

O'qitishning barcha bosqichlarida xorijiy tillarni o'rganishni kengaytirish, bu yoshlarning axborot resurslaridan keng foydalanishni, shuningdek, ularning xalqaro mehnat bozori sharoitlariga moslashishini ta'minlaydi.

Muammoniing o'rganishlik darajasi: Chet yel va mamlakatimiz olimlari va mutaxascilar tomonidan xar-xil tarmoqlar keng tarqalgan. Masalan- "Onlayn pasporti" rahbari Mark Sukerberg. (Angiliya), "Feysbuk" (Amirika, Yevropa, Yangi Sharq), "Odnoklassiki" (Rossiya, Ukraina, Belarus va boshqalar), "Renren" (Xitoy), "SingMi" (Vetnam), "Dragism" (Letviya, Latviya va boshqalar) ijtimoiy tarmoqlardan keng foydalanishadi.

Lekin biz tanlagan yo'nalishda ayni bir ijtimoiy tarmoqlar yo'q, ammo umum ta'lim tizimi borligini e'tiborga olgan xolda ta'lim muassasalari uchun yagona tizim yaratish lozimligini qayd etamiz

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi: internetning o'quvchilar ma'naviy- axloqiy hayotiga ta'sirini aniqlash va undan olingan ma'lumotlarni amalda qo'llashni maqsad qilib olganmiz.

Tadqiqot vazifalari:

- Internetning tarixi va rivojlanishi hamda Internetdan foydalanish madaniyati o'rganish
- Axborot kommunikation texnologiyalar va ta'lim tizimi masalalari
- Internetdagi ijtimoiy tarmoqlari va o'quvchi yoshlar tarbiyasi masalasi
- Ta'lim muassasalarini rivojlanishiga oid iternetdan olingan ma'lumotlarni o'rganish
- Internet iskanjasi yoki internetning ijodiy faoliyatga ta'sirini tahlil qilish
- O'quvchilarning kompyuter o'yinlari va uyali telefonlarga bog'lanib qolishlarining ayrim sabablarini izlash

Tadqiqot obyekti va predmeti: internetning o'quvchilar ma'naviy-axloqiy hayotiga ta'sirini aniqlash va undan olingan ma'lumotlarni amalda qo'llashni texnologiyasi va ularni o'qitish jarayoniga kiritish uslubiyati.

Tadqiqot metodlari:

1. Adabiyotlar taxlili

2. So'rovnomalar
3. Psixologik kuzatishlar
4. Pedagogik tajriba
5. Testlar o'tkazish
6. Matematika, statistika
7. Savol-javoblar qaydnomasi

Ilmiy yangiligi:

Ta'lim muassasalarida internet ijtimoiy tarmoqlarini yaratish va yangi vep-sayt yaratishdan iboratdir. Bu chet ellik va mamlakatimizdagi ta'lim muassasalar bilan yaqindan aloqa o'rnatib tez ilg'or tajribalarni hayotga tadbiiq qilishdan iboratdir.

Bitiruv malakaviy ishining tuzulishi:

Bitiruv malakaviy ish, kirish, 2 bob, 7 ta paragraf, tajriba-sinov, xulosa va tavsiyalar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I-bob. Internetning o'quvchilar ma'naviy-axloqiy hayotiga ta'sirining nazariy asosari

1.1. Internetning tarixi va rivojlanishi

Bugun internet nima ekanligini deyarli hamma yaxshi biladi. Negaki u kundalik hayotimizning barcha jabxalariga kirib keldi va muhim o'rin egalladi. Biroq, mazkur jaxon axborot to'rida qisqa muddat ichida paydo bo'lib, hozirda shiddat bilan rivojlanib borayotgan va millonlab insonlarning xatti-harakati, dunyoqarashi, boshqa odamlarga nisbatan munosabati, siyosiy-ijtimoiy ta'bi, qolaversa, taqdiriga bevosita ta'sir etayotgan ijtimoiy tarmoqlar haqida nimalarni bilamiz? Ularning qanday xuquqiy asoslari mavjud?

Ta'rif beradigan bo'lsak, internetdagi ijtimoiy tarmoq bu – turli maqsadlar uchun har-xil ijtimoiy munosabatlarni o'rnatish, rivojlantirish va bir maromda olib borishga mo'lajallangan onlayn xizmat yoki veb-saytdir.

AQShlik mutaxassislarning bildirishicha, jaxon mamlakatlarida internitdan foydalanuvchilar sarf etayotgan umumiy vaqtning o'rtacha har oltinchi daqiqasi aynan ijtimoiy tarmoqlarga to'g'ri kelmoqda. Bunday tarmoqlardan foydalanuvchilarning umumiy soni esa bugungi kunda 1 milliard 200 million kishidan oshib ketdi, ya'ni Yer sharidagi insonlarning deyarli har oltinchisi ijtimoiy tarmoqlardan birining foydalanuvchisi hisoblanadi. Yana bir diqqatli jihati – ushbu raqam kuniga 200-250 ming kishiga ko'paymoqda. Ma'lumot o'rinida aytish mumkinki, hozirda qariyb 1 milliard 800 million kishi yoki sayyoramizdagi har to'rtta odamdan bittasi “O'rgimchak to'ri” xizmatidan foydalanadi.

Ijtimoiy tarmoqlar ularning tashkilotchilari uchun, eng avvalo, muhim daromad manbai hisoblanadi. Cheksiz axborot ummonini pulga aylantirish ishtiyoqi bunday tarmoq egalarining juda tez boyib ketishiga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, bunday axborot deyarli tekinga, odamlarning o'zi tomonidan ijtimoiy tarmoqlarga yuklanayotgani ham ushbu yo'nalishni eng kamchiqim beznisiga aylantiradi. Masalan, internetdagi ijtimoiy tarmoqlarning eng yirigi – “Feysbuk” (Facebook)da 850 millionta profil-foydalanuvchilarning shahsiy sifatlari qayt

etilgan bo'lib, Buyuk Britaniyada nashr etiladigan "The Economist" jurnalining ma'lumotlariga ko'ra, u jahon mamlakatlarining aksariyatida urf bo'lgan hamda sof daromadi 2011 yilda 1 milliard AQSh dollaridan ortgan. Kompaniyaning bozordagi narxi 75-100 milliard dollargacha baholanmoqda. "Feysbuk" muallifi va rahbari 27 yoshli Mark Sukerberg esa jahondagi eng yosh milliarder hisoblanadi. Uning ixtirosi allaqachon millionlab kishilarning "Onlayn pasport" ga aylanib ulgurdi.

Jahon mamlakatlarida turli ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish maqsadlari, miqiyoslari va davriyligi turlicha bo'lsa-da, ularda umumiy jihatlarni kuzatish mumkin. Italiyalik tadqiqotchilarning ta'kidlashlaricha, Amerika, Yevropa, Yaqin Sharq, Janubiy va Sharqiy Osiyo, Avstraliya va Okeaniyadagi mamlakatlar aholisining aksariyat qismi "Feysbuk" dan foydalanadi, Rossiya, Ukraina, Belarusi hamda Markaziy Osiyo davlatlarida esa "vKontakte" va "Odnoklassniki" kabi ijtimoiy tarmoqlar keng tarqalgan.

Ayrim davlatlarda asosan o'sha davlat fuqarolari tomonidan foydalaniladigan ijtimoiy tarmoqlar ham mavjud. Ular qatoriga Xitoydagi "Renren" (Ranren) va "Tensent" (Tencent)ni, Vyetnamdagi "SingMi" (ZingMe) va Latviyadagi "Draugiyem" (Draugiem)ni kiritish mumkin.

Shubhasiz, ijtimoiy tarmoqlar millionlab insonlar uchun qator yengilliklar yaratdi. Jumladan, istalgan joyidan ijtimoiy tarmoqqa ulanib, o'z do'st-birodarlaringiz, qarindoshlaringiz, ular holidan baxabar bo'lib, jahonda ro'y berayotgan yangiliklar, turli qiziqarli ma'lumotlar, hayotingizning muhim onlari aks etgan fotosuratlar, vidolavxalar va boshqa turdagi axborot bilan o'rtoqlashishingiz mumkin. Eng asosiysi, bu juda qulay va nisbatan arzon vositadir. Ammo shu bilan birga bunday tarmoqlarning salbiy jihatlari zaif tomonlari ham bormi? U yerda bizni qanday xavf-xatarlar kutmoqda? BMI tayyorlash jarayonida o'tkazilgan so'rovnomada ishtirok etgan poytaxtlik bir guruh yoshlarning barchasi o'z javoblarida internet tarmog'idan foydalanishlarini va deyarli 90 foizi ijtimoiy tarmoqlarda shaxsiy profillariga ega ekanliklarini bildirganlar. So'rov natijalariga ko'ra, O'zbekistonlik "ijtimoiy tarmoqchilar" ning

70 foizi “Feysbuk” va “Odnoklassikniki” dan, qolgan 30 foizi esa “MoyMir” va “vKontakte” kabi ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishi ma’lum bo’ldi. Shuningdek, so’rovnomada qatnashganlarning aksariyati bo’nday tarmoqlarga yuklangan shaxsiy ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlash juda murakkab va qiyin masala, deb ko’rsatdi. Chunki tarmoqda “daydib yurgan” anonim yoxud o’zga shaxslarning ismi-sharifi bilan ro’yxatdan o’tgan minglab yuzerlar, ya’ni foydalanuvchilar siz va sizning faoliyatingiz haqida turli g’arazli maqsadlarda axborot to’plashi mumkin. Qolaversa, o’zini monitor ortida himoyalagan deb hisoblovchilar turli hiyla-nayranglar tuzog’iga ilinib qolmaslikka kim kafillik beradi?

Bundan tashqari, ayrim yoshlar virtual ijtimoiy tarmoqlardan haddan ziyod foydalanish real hayotdagi oilaviy va ijtimoiy munosabatlarga hamda ta’lim va ish jarayoniga salbiy ta’sir etadi, deb hisoblaydilar.

Profil egalari ijtimoiy tarmoqlarda o’rtacha ikki kunda bir marta kirib turishlarini aytishgan bo’lsa-da, ularning ko’pchiligi tegishli saytlarda berilgan ijtimoiy tarmoqdan foydalanish qoida va shartlari bilan tanishib chiqmagan. Aksariyati esa bu boradagi qonun talablaridan bexabar. Ular o’z xatti-harakatlarini umumiy tushunchadagi odob-axloq qoidalari asosida amalga oshiradilar. Biroq, bunday qoidalarga bepisand bo’layotgan yuzelar ham “kiber olam”da ko’plab topiladi.

So’rovnomada ishtirok etganlarning hych qaysi biri: “Internetdagi ijtimoiy tarmoq orqali sizga zarar yetkazgan shaxsni javobgarlikka torta olishingizga ishonasizmi?” degan savolga qat’iy tarzda ijobiy javob bera olmadi.

Umuman olganda, taxlillar shundan dalolat bermoqdaki, internetdagi ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishga mukkasidan ketgan minglab kishilar o’zlarining real xayotdagi munosabatlari, o’qish va ish jarayonidagi majburiyatlariga yetarli darajada etibor qilmayotgan, masuliyatsiz yondashayotgan holatlar ham, afsuski, avj olib bormoqda. Masalan, Gallup tadqiqot agentligi keltirgan malumotlarga ko’ra, hozirgi vaqtda AQSh va Kanadadagi yer-xotin ajralishishining har uchunchi xolatiga ijtimoiy tarmoq sabab bo’lmoqda. Afsuski, ushbu ko’rsatkich o’sish tendensiyasini namoyon etmoqda. Bunday xolatni

Yevropa mamlakatlarida ham kuzatish mumkin. Bir toifa odamlar shu darajada onlaynga berilib ketganlarki, hatto o'z vaqtida ovqatlanmaydilar, belgilangan vaqtda dam olmaydilar, ish va o'qishga yetarli darajada etibor qaratmaydilar. Bu esa qanday salbiy oqibatlarga olib kelishini barchamiz yaxshi tushunamiz.

Bugungi kunda O'zbekistonda ham aloqa va axborotlashtirish xizmatlari tezkorlik bilan rivojlanib bormoqda. Birgina 2011 yil davomida bunday xizmatlar xajmi salkam 42 foizga oshgan. Mamlakatda internetdan foydalanuvchilar soni 8 million kishini tashkil etmoqda.

Hozirgi vaqtda tobora ko'plab mutaxassis va olimlar, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarning oddiy foydalanuvchilari tomonidan bunday tarmoqlarni yetarli tarzda xuquqiy tartibga solish zarurati haqidagi fikrlar bildirilmoqda. Ammo bu masalani to'la ijobiy hal etish nisbatan qiyin va murakkabligicha qolmoqda. Sababi, bunday xuquqiy tartibga solishda, xususan, xuquq nazariyasi nuqtai nazaridan, qator muammolarga duch kelinadi. Jumladan, internetdagi ijtimoiy tarmoqlar yurisdiksiyasi, ulardan foydalanuvchi shaxslarning xuquq subyekti masalasi, tarmoqdan foydalanish joyi va vaqti kabi qator muammolar mavjud.

Shuningdek, ijtimoiy tarmoqda tobora keng quloq yozib borayotgan odob-axloqqa zid matnlar, suratlar va video matiriallar mualliflarini, zo'ravonlik, qo'paruvchilikka undovchi manbalarni aniqlash va egalarini tegishli xuquqiy javobgarlikka trtish masalalari ham qator muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Internetdagi ijtimoiy tarmoqlarning "xizmati" tufayli o'tgan yili qator mamlakatlarda, xususan, Buyuk Britaniyaning London shaxrida, Tunis, Misr va Liviya hamda Rossiyaning ayrim shaxarlarida tartibsizliklar kelib chiqdi. Iqtisodiyot milliardlab moliyaviy yo'qotishlarga duchor bo'ldi.

Diniy, etnik va irqiy nizolarning kelib chiqishi va avj olishida ham "kiber makon" kengliklari asosiy omillardan biriga aylanib ulgurdi.

Ayrim davlatlar ijtimoiy tarmoqlar bilan bog'liq faoliyatni u yoki bu darajada xuquqiy tartibga solishga harakat qilmoqda. Bu borada AQSh, Germaniya, Fransiya, Xitoy kabi davlatlar tajribasiningn o'ziga xos jihatlarni ko'rsatish mumkin. Masalan, AQShdagi bir nechta shtatda o'qituvchilar va

o'quvchilar, sudyalari va ular ko'rib chiqayotgan ishlar bo'yicha jalb etilgan advokatlarning ijtimoiy tarmoqlarda do'stlashishi taqiqlangan.

Ommaviy axborot vositalari tomonidan tarqatilgan malumotlarga ko'ra, Xitoyda shu yil mart oyidan etiboran internetdagi ijtimoiy tarmoqlardan faqat o'z ismi-sharifi ostida foydalanish shart qilib qo'yildi. Har xil "nikneym"lar, yani taxallus va laqablardan foydalanish taqiqlandi. Bunday virtual tarmoqlardagi mavjud "nikneym" egalari uch oydan kechiktirmay o'z taxallus va laqablarini fuqarolik pasportlarida qayd etilgan ism-shariflariga o'zgartirishlari talab etilmoqda.

Barcha say-harakatlarga qaramay, davlatlarning yakka tartibda ijtimoiy tarmoqlarni xuquqiy tartibga solishga qaratilgan urinishlari hali-beri kutilgan natijalarni bermayapti. Internetdagi ijtimoiy tarmoqlarda o'zaro munosabatga kirishuvchi turli jismoniy va yuridek shaxslarning faoliyatini qat'iy tartibga soluvchi qonun normalarining yetishmasligi, bunday tarmoqlardan isbot va aniq dalillarni olish masalasining murakkabligi foydalanuvchilar ongiga turli fikrlarni tug'diradi: "qonunlarga itoat etish kerak, lekin internetga emas". Ekspertlarning fikricha, tegishli avtomatik tizimlar "kiber jamiyatlar"dagi axborotning faqat 20-25 foizini tekshira oladi, xolos. Yuklanayotgan malumotlarning barchasini kuzatib borish, nazorat qilishning jismonan imkoni yo'q.

Shu o'rinda internet xizmatlarini ko'rsatayotgan provayderlar va mobil aloqa operatorlarining masuliyati xaqida ham o'ylab ko'rish o'rinlidir, balki.

Internetning global xususiyatini etiborga olib, shuni alohida takidlash lozimki, ulardagi ijtimoiy tarmoqlarni xuquqiy tartibga solishda xalqaro hamkorlik hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Hozirga qadar internet va undagi ijtimoiy tarmoqlarni xalqaro miqiyosda xuquqiy tartibga solish bo'yicha bir qator urinishlar amalga oshirilgan. Bu boradagi bahs-munozaralar hali ham davom etmoqda.

Izlanishlar, yuqorida qayd etganimizdek, soha bo'yicha xozirgacha qabul qilingan xalqaro xuquqiy normalar yetarli emasligini ko'rsatmoqda. Ularni takomillashtirish va keng qamrovli xujjatlar bilan to'ldirish zarur. Bu so'nggi

yillarda jahonning qator mamlakatlarida kuzatilayotgan turli noxush voqea-hodisalarning ortib borayotgani misolida, ayniqsa dolzarflik kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, nufuzli xalqaro tashkilot doirasida inetenetni, shu jumladan undagi ijtimoiy tarmoqlarni xuquqiy tartibga soladigan maxsus xalqaro normativ xujjat ishlab chiqilishi va qabul qilinishi maqsadga muvofiqdir.

Milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida meyoriy faoliyatni ta'minlab beradigan axborot va texnologiyalar menejerlar uchun strategik maqsadlarga aylanmoqda. Axborot tizimlari korxonada ichidagi axborot oqimini optimallashtirish va undagi axborotlar zaxirasidan maksimal samarali foydalanish uchun xizmat qilmoqda. Xizmatchilarning mehnat unumdorligi foydalanilayotgan tizimning sifatiga bog'liq bo'lganligi uchun axborot texnologiyalariga nisbatan qabul qilinadigan qarorlar firmalar rivojlanishida muhim hisoblanmoqda.

2008 yilning iyul oyiga nisbatan respublikamizda uyali aloqa abonentlari soni 9 millionga yetib, axoli sonidagi ulushi 33,2 % bo'lgan. Agar bu ko'rsatkich 2003 yilda 0,7 % bo'lganligini hisobga olsak, o'sish sur'ati borgan sari yuksalib bormoqda.

Respublikamiz bo'yicha Internet tarmog'idan foydalanuvchilarning umumiy soni 2006 yilda 855 mingta bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunga kelib, 2202.9 mingtani tashkil qilmoqda. Xududlar kesimida ko'rmoqchi bo'lsak, Toshkent shahrida 1113 mingtani (aholining 51.09 %), Qashqadaryo viloyatida 203 mingtani va Samarqand viloyatida 182 mingtani tashkil qilmoqda. Eng kam Internetga ulanganlar soni Qoraqalpog'iston Respublikasi (20 ming) va Jizzax viloyatida (21 ming) kuzatilmogda.

Ko'rinib turibdiki, axborotlashgan jamiyatni bosqichma-bosqich shakillantirib borish uchun texnologik zamin yaratib berilmogda. Axborotlashgan jamiyatning shakillanib borishida quyidagilarga jiddiy e'tibor berish kerak bo'ladi:

1. Ushbu jamiyat, avvalambor, taraqqiy etgan industrial jamiyat negizida shakillandi. Jahonda xech bir davlat axborotlashgan jamiyatga industiriyani chetlab o'tgani yo'q.

2. Milliy iqtisodimiz xizmat ko'rsatish sohasining tarkibiy jihatdan o'zgarishi o'z o'rnida axborot xizmatlari sohasiga ham ta'sir ko'rsatadi, ya'ni ularning yalpi o'sib borishi kuzatilmoqda.
3. Moddiy ishlab chiqarish sohasidagi o'zgarishlar ishlab chiqarish vositalari va mehnat unumdorligining o'sishi bilan tavsiflanishi natijasida ishchi kuchidan oqilona foydalanilmoqda. Bo'shagan ishchi kuchining boshqa sohalarga jalb qilinishi mutaxassisning malakaviy jihatdan tayyorgarlik darajasiga bog'liq bo'lmoqda.
4. Ishlab chiqarish jarayonida intellektual kapital va axborotning ahamiyati yuksalib bormoqda. Yangi asrning boshiga kelib, AQShning iqtisodida axborotlar yordamida sanoatdagi qo'shimcha qiymatning $\frac{3}{4}$ qismi ishlab chiqilgan, ya'ni "Axborotlashtirish" jamiyatning asosiy xususiyatlaridan bo'lib, moddiy ishlab chiqarishning barcha sohalarida bilim asosidagi qiymatlarining ulushi ortib bormoqda.
5. Ishlab chiqarish jarayonlarida bilim va axborot rolining yuksalishi ta'lim tizimini birinchilar qatoriga olib chiqmoqda. Axborotlashgan jamiyatda har bir xodim nafaqat yuqori malakali mutaxassis, balki doimo ta'lim olishga qobiliyatli va qayta tayyorlashga tayyor bo'lishi lozim. Zamonaviy ishlab chiqarish xodimdan keng dunyoqarashga ega bo'lishning, yuqori malakali va chet tillar hamda AKTni bilishni talab etmoqda.
6. Jamiyat ishlab chiqarishida fanning ahamiyati ortib borib, ishlab chiqarishning asosiy omillariga aylanmoqda. Axborotlashgan jamiyatda fanning o'zi qo'shimcha qiymatni ishlab chiqmoqda.

Binobarin, axborot-komunikasiya tarmog'i allaqachon hayotimizdan mustahkam o'rin egallagan bo'lib sohani zamon talablari asosida yo'lga qo'yish va rivojlantirish jamiyat taraqqiyotini belgilovchi muhim omillardan biriga aylangan. Telekomunikasiya tarmoqlarining rivojlanishidan halqimiz birdek manfaatdor.

1.2. Internetdan foydalanish madaniyati

Bugun dunyoning bir nuqtasida sodir bo'lgan voqea, yangilik xususida yetarli axborot olishimiz uchun atigi bir necha soniya kifoya. Monitor qarshisida sichqonchasimon moslamani boshqarib, istalgan mavzuda istalgan axborotni olish mumkin. Internet bir necha o'n yil ichida global tarmoqqa aylanib, nainki axborotlashgan jamiyatni yuzaga keltirdi, balki jahonda globallashuv jarayonining tezlashishida ham muhim omil bo'ldi.

Internet – insoniyat tafakkuri mahsuli. Ish stolimizda turgan kompyuterga shunchaki elektron qurilma sifatida qaray olmaymiz. Internet axborot olish, almashish va uzatishning eng samarali, qulay vositasidir. Uning multimediya (tasvir, ovoz, matn) xizmati va boshqa qator qulayliklari insoniyatni virtual olamga ohanrabodek tortmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, shu yilning sentabr oyida dunyo bo'yicha internetdan foydalanuvchilar salkam 1 milliard 734 million nafarga yetgan. Vaholanki, 2000 yilda global tarmoqdan 361 millionga yaqin odam foydalangan. Yana to'qqiz-o'n yildan keyin bu raqamlar yana necha million nafarga ortishini tasavvur qilish qiyin emas. Chunki taraqqiyot misli ko'rilmagan shitob bilan ilgarihamoqda.

Lekin masalaning ikkinchi, g'oyat e'tibortalab jihati ham bor. Ba'zi mamlakatlarda virtual olamga g'arq bo'lish oqibatida o'zining yoxud o'zgalarning joniga qasd qilish odatiy holga aylanayotgani ham sir emas. Yoki qator davlatlarda real hayotni virtual hayotga almashtirgan, ruhiy nosog'lom bemorlarni davolashga ixtisoslashgan shifoxonalar tashkil etilayotganini ham hech kim inkor etolmaydi.

Kompyuter xizmatlaridan foydalanish uchun vaqtini ham, pulini ham, alaloqibat salomatligini ham ayamaydiganlar safi tobora kengayib bormoqda. Bolg'a bilan uy qurish ham, boshni yorish ham mumkin. Bugun yoshlarimizning, ayniqsa, bolalar va o'smirlarning internetdan foydalanishini shu ikki holatning qay biriga qiyoslash to'g'ri bo'ladi?

– O'g'lim kompyuter olib bering, dedi. Olib berdik. Internetga ulanaylik, dedi. Bu istagini ham bajardik, – deydi G.Bobobekova. – Haddan tashqari sersavol, hamma narsaga qiziquvchan o'g'lim asta-sekin o'zgarib boshladi. Maktabdan

kelib qoʻyib kompyuterga yopishar, undan soatlab ajralmas edi. Avvaliga xursand boʻldim, koʻcha-koʻyda tentirab yurganidan koʻra, darslardan soʻng uyda, koʻz oʻngimda oʻtirishidan xotirjam tortdim. Oʻgʻlimning harakatlarini kuzata boshladim. Undagi ruhiy oʻzgarishni oʻsmirlik davriga xos, deb boʻlmasdi. Odamovi, loqayd, yolgʻizlikni xush koʻradigan, xudbin va takabbur boʻlib qolayotgandek tuyuldi. Bir kuni kompyuterida dahshatli filmni tomosha qilib oʻtirganini koʻrib qoldim. Odatda bunaqa disklarni uyga keltirmasdim. Keyin bilsam, internetdan izlab topibdi...

Taassufki, soʻnggi paytlarda koʻngilni gʻash qiladigan bunday holatlar koʻp kuzatilmoqda. Buni psixologlar qanday izohlaydi?

Azamat Nazarov, psixolog:

– Bugun internetdan foydalanuvchilarni shartli ravishda ikki toifaga ajratish mumkin. Birinchi toifadagilar kasbi talabidan kelib chiqqan holda yoki ilmiy tadqiqotlari uchun zarur maʼlumot va axborot olish maqsadida internetga murojaat qilayotganlar boʻlsa, ikkinchi toifadagilar shunchaki qiziqishiga koʻra, deylik, pornografik, tanishuv saytlariga kirib yoki on-layn oʻyinlari bilan kun oʻtkazish kayfiyatida boʻlganlardir.

Virtual olam insonni manipulatsiya qilmoqda. Manipulatsiya – bu fikriy qaramlik orqali oʻziga boʻysundirish demakdir. Hozir bolalar yoki oʻsmirlarning internet-kafeni “ikkinchi uyi”ga aylantirib olayotgani sir emas. Kuzatishlar shuni koʻrsatadiki, on-layn oʻyinlarini oʻynovchilar ham asosan oʻsmirlardir. Oʻsmirlik shaxsning fiziologik va ijtimoiy rivojlanishidagi oʻziga xos davr hisoblanadi. Agar shu davrda oʻgʻil yoki qiz agressiv ruhdagi on-layn oʻyinlariga berilsa, bu noxush oqibatlarga olib kelishi ehtimoldan xoli emas.

Virtual olamda insonning vaqtini idrok qilish tizimi buziladi, ijtimoiy faolligi kamayadi. Kompyuter qarshisida vaqt oʻtganini sezmay qolishning boisi ham shunda. Virtual vositalarning salbiy taʼsiri maʼnaviy-axloqiy tanazzul bilan chegaralanib qolmay, insonning immun tizimini susaytirmoqda, umurtqa pogʻonasi va koʻz kasalliklarini keltirib chiqarmoqda.

Nargiza Xalilova, Toshkent davlat pedagogika universiteti psixologiya kafedrasida katta o'qituvchisi:

– Bundan besh-o'n yil oldin uylar atrofidagi o'yin maydonchalari bolalar bilan gavjum bo'lar edi. Hozir esa bolalarni ko'proq har qadamda uchraydigan internet-kafelarda uchratasiz. Bolalar harakatli o'yinlardan ko'ra kompyuter o'yinlariga qiziqmoqda. Albatta, farzandlarimizning zamonaviy axborot texnologiyalariga doir bilim va ko'nikmalari erta shakllanib borayotgani quvonarli. Ammo bu ma'lum bir yo'qotishlarga sabab bo'layotganidan ham ko'z yumib bo'lmaydi.

Biz talabalik chog'imizda kutubxonalarda kitob izlash bilan vaqtimiz o'tar edi. Bugungi talaba esa istagan adabiyotining elektron nusxasini internetdan topa oladi, ortiqcha vaqt va mehnat sarflamaydi. Bu tahsinga loyiq.

Psixolog sifatida talabalarimni kuzatib, shunday xulosaga keldimki, internet shaxsda fikriy rivojlanishni, mushohada, tahlil qilish qobiliyatini, izlanuvchanlikni va xotirani susaytiradi. Biz va bizdan oldingi avlod vakillari Navoiyning, Fuzuliyning yuzlab satrlarini yod bilgan. Hozir esa to'rt qator satrni xotirasida saqlab qololmaydigan va shaxsiy kompyuterining xotirasiga suyanib qolgan, usiz umuman fikrlay olmaydigan yoshlar oz emas. Kompyuter, xususan, internet farzandlarimizni o'ylamay, fikrlamay yashashga o'rgatmayaptimikan, deya xavotirga tushasan kishi...

Umumiy psixologiya fanidan yaratilgan elektron darslikni talabalarga tavsiya qildim. Mazkur darslikka ma'ruzalar matni, laboratoriya topshiriqlari va psixologik testlar bilan birga dam olish uchun mo'ljallangan intellektual o'yinlar ham kiritilgan edi. Bir haftadan so'ng talabalarning darslik haqidagi fikrlarini so'radim. Afsuski, ko'plab talabalardan "O'yinlari zo'r ekan...", "Anovi o'yinda o'ninchi turdan chiqib ketish yo'li qanday?" degan so'zlarni eshitdim, xolos. Bu aksariyat yoshlarimizning internetga axborot manbai sifatida emas, ko'proq dam olish vositasi sifatida qarayotganidan dalolatdir. Yulduzlar hayoti, kino olami, tanishuv, pornografiyaga oid saytlar, mohiyati zo'ravonlikka, tajovuzkorlikka asoslangan o'yinlar hali shaxs sifatida shakllanib ulgurmagani bolalarimizni,

yoshlarimizni virtual olam domiga tortib ketayotganiga qo‘l qovushtirib qarab turmasligimiz lozim.

Shu o‘rinda internet jodusidan qanday himoyalanmoq kerak, degan savol tug‘iladi.

Azamat Nazarov, psixolog:

– Ilmiy saytga kirib, kerakli manbani o‘qib turgan paytingizda asosan tanishuv yoki pornografik saytlar reklamasi ekranda paydo bo‘ladi. Ruhiy boshqarish quvvatiga ega bu reklamalarga e‘tibor qaratish, ortiqcha informatsiyalar ortidan quvish inson resurslarini behuda sarflash demakdir. Ayrim kompyuter o‘yinlari inson ruhiyatida sadizmga moyillikni uyg‘otadi. Bularning oldini olish uchun bolalarni, yoshlarni internetdan chetlashtirib qo‘ya olmaymiz, albatta. Bu davr talabi, zamondan orqada qolib bo‘lmaydi. Eng to‘g‘ri yo‘l, nazarimda, farzandlarimizga virtual olamda nima yaxshi-yu, nima yomonligini o‘rgatishimiz, ularda internetdan foydalanish madaniyatini shakllantirishimiz kerak. Bunda asosiy mas‘uliyat ota-ona, o‘qituvchi-pedagoglar zimmasiga tushadi.

Ha, bugun internet imkoniyatlarini, uning foydali jihatlarini hech kim inkor etolmaydi. Faqat undan foydalanish madaniyatini shakllantirmoq, bolalarni unga o‘rgatmoq zarur. Binobarin, yoshlarimizning ruhiy-ma‘naviy olamini zararli unsurlardan himoya qilish orqali taraqqiyot poydevori yaratiladi. Ma‘naviy barkamollik esa jamiyat taraqqiyotining muhim omilidir.

1.3. Axborot kommunikasion texnologiyalar va ta'lim

Bugungi kunimizni internetsiz tasavvur qilish juda qiyin. Global tarmoq hayotning yangicha yo'nalishi emas, balki mashg'ulotning bir turiga aylanib bo'ldi. Uning imkoniyatlari cheksizligi haqida esa ko'p gapirish mumkin.

Internetning ijobiy va salbiy tomonlari haqida juda ko'plab bahs-munozaralar bo'lyapti. Men ham tarmoqning foydali jihatlarini inkor etmagan holda undan noo'rin foydalanish natijasida kelib chiqayotgan tomoniga e'tibor qaratmoqchiman. Chunki har bir narsaning salbiy tomonini tahlil qilmay turib, uning yaxshi xususiyatlari qadriga yetish mushkul, deb hisoblayman.

Masalan, bugungi kun o'quvchilari va talabalari xohlagan mavzudagi referatlarni, istalgan ma'lumotni, turfa rasmlarni tayyor holda internetdan topib, ulardan nusxa ko'chirib olishyapti. Savol tug'iladi: Xo'sh, bu holat ularni izlanishdan to'xtatib qo'ymaydimi? Agar biz o'zimizga kerakli ma'lumotlarni turli kitob va gazeta-jurnallardan yoki ensiklopediyalardan qidirsak, keragidan ortiqroq ma'lumotlarga ega bo'lishimiz mumkin-ku. Chunki, zarur ma'lumotni qidirish asnosida istaymizmi-yo'qmi boshqa ma'lumotlarga ham ko'zimiz tushib, uni o'qiymiz va o'sha ma'lumot xotiramizda saqlanib qoladi. Ma'lumotni bu usulda izlash juda qiziqarli. Sababi, qidirayotgan ma'lumotimiz bitta kitobda to'liq bo'lmasligi mumkin va biz boshqa kitoblarga murojaat qilamiz. Ma'lumotlarni taqqoslaymiz, tahlil qilamiz, xulosa yasaymiz. Shu tariqa kitobga bo'lgan mehrimiz, so'z boyligimiz ortadi, eng asosiysi, o'z ustimizda ishlashni, izlanishni o'rganamiz.

Bu bilan internetni batamom rad qilmoqchi emasman. Faqat undan me'yorida foydalanishni bilishimiz kerak. Aks holda tarmoq bizning sog'lig'imizga, ruhiyatimizga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ayniqsa, rivojlanish davrini boshdan kechirayotgan bolalarning kompyuter qarshisida ko'p o'tirishi zararlidir. Ikkinchi tomondan esa kerakli ma'lumot qidirib internetga kirgan bola boshqa ma'lumotlarga chalg'ishi mumkin. Turli o'yinlar, musiqa va filmlar uning xayolini bo'ladi. Bular uning psixologik rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Tarmoqdagi axloqiy buzuvchi kontentlar esa bolaning ma'naviy taraqqiyoti uchun juda xatarlidir.

Biz dunyoga dong‘i ketgan buyuk allomalar farzandlarimiz. Tengdoshlar, keling, shu sha‘nimizni saqlab qolaylik, boshqalarga o‘rnak bo‘ladigan avlod bo‘lib voyaga yetaylik. Internetdan oqilona foydalaning. Internet undan to‘g‘ri foydalangan har bir inson uchun juda foydali ekanligini, noo‘rin foydalanadiganlarga esa ma‘naviy zararligini aytib, eslatib qo‘ymoqchiman, xolos.

Kim nima desin-u, lekin Intenet hayotimizga tobora chuqurroq kirib borib, uni tanib bo‘lmaydigan darajada o‘zgartirib yuboryapti. Shu yerda bir muammo paydo bo‘ladi: tun-u kun hamma murojaat qila oladigan va hatto yosh bolakaylar ham foydalana oladigan axborotlar manbaiga bog‘liq bo‘lib qolishda qanchalik darajada ijobiylik mavjud?

Albatta, Internetning asosiy yutug‘i shundaki, u axborot tashuvchisi hisoblanadi. Axborot esa hozirgi globallashuv davrida neft, gaz, oltin va shu kabi qimmatbaho tabiiy boyliklardan yuqoriroq baholanadi. Axborotga ega bo‘lgan odam hamma narsaga ega bo‘ladi. Biroq borgan sari Internet o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifani emas, aksincha undan hech kim kutmagan narsalarni bajarmoqda. Unda joylashgan ma‘lumotlar ham doimo foydali bo‘lavermaydi.

Internet tarmog‘i ilk bora paydo bo‘lganda u aynan axborot tarmog‘igina bo‘lgan. Undan boshqa xususiyatlarni talab qilishmagan. Buni amerikalik olimlarning o‘z oldiga ma‘lumotlarni uzatishning xavfsiz tizimini yaratish vazifasi qo‘yilgani bilan ham izohlash mumkin.

Bu tarmoq ARPANET(Advanced Research Projects Agency Network) nomini oladi va o‘tgan asrning yetmishinchi yillarida ishlay boshlaydi. U asta-sekinlik bilan oddiy odamlar faoliyatiga ham ta‘sirini o‘tkaza boshlaydi. Bunga tobora kichikroq va arzonroq bo‘la boshlagan kompyuterlarning keskin ravishda ko‘payishi sabab bo‘ladi. Ammo, 1984 yilda AQSHda yangi universitet tarmog‘i NSFNet yaratilgach ARPANET o‘z muhimligini yo‘qota boshlaydi va 1990 yilda o‘zi haqida faqat xotira va tarixiy faktlarnigina qoldirib faoliyatini to‘liq to‘xtatadi. NSFNet tarmog‘iga telefon liniyasi orqali ulanish imkoniyati paydo bo‘lgach ilmiy hodim bo‘lmaganlar, ya‘ni oddiy insonlar ham undan foydalana boshlaydi. Bu esa

tarmoq rivojlanishini yanada tezlashtiradi: 1993-yilda birinchi brauzer paydo bo'ladi, 1995-yilda esa NSFNet o'zining ilmiy ishlariga qaytadi va tarmoq marshrutizatsiyasini hozirda juda ko'p bo'lgan oddiy internet-provayderlarga qoldiradi.

Internet tarmog'i borgan sari yangi odamlarni o'ziga jalb qila boshladi. Hozirga kelib esa u eng tez rivojlanayotgan OAV lardan biri bo'lib, yaqin kelajakda televideniye, radio va gazetalarni ham o'rnini bosishi mumkin va bosyapti ham. Albatta, to'liq emas, ammo shunisi aniqki, u axborotlarning asosiy manbaiga va kelajak avlodlar uchun asosiy ko'ngilochar joyiga aylanadi. Shuningdek, Internet umumiydir va u hech kimga tegishli emas. Bu esa uning asosiy yutuqlaridan biridir.

Endi bir o'ylab ko'raylik, shu zaylda rivojlanish bizga kerakmi? G'arbda tarmoqda ko'p vaqtini o'tkazayotgan insonlarning o'limi haqidagi xabarlar ham yetib kelyapti. Internet o'ziga xos narkotikka aylanib boryapti.

Nima deb o'ylaysiz, narkotik moddalari va alkogol ichimliklariga ruju qo'yishdan xavfliroq bog'lanib qolishlik mavjudmi? Yo'q, deb javob berib bir tomondan haq bo'lasiz. Biroq, ulardanda qolishmaydigan kompyuterga bo'glanib qolishlik ham bor. Barcha o'ylashi mumkin, bunday bog'liqlikni hayotga, sog'likka va atrofdagi odamlarga umuman ta'siri yo'q, deb. Shunaqamikan? Keling shuni batafsilroq tahlil qilib aniqlab olamiz.

Agar inson kompyuter qarshisida kecha-yu kunduz o'tirsa, bu hali uni kompyuterga bog'lanib qolishligi jihatidan ruhiy kasallanganligini bildirmaydi. Agar bu insonning kasbi monitor qarshisida doimo o'tirishni talab qilsa yoki nogiron insonning boshqa yo'l bilan muloqot qilish, o'qish, ishlashga imkoniyati bo'lmsa, bu tushunarli va normal holat. Unda normal bo'lmagan holat qaysi?

“Inson kasallangan, u kompyuterga, virtual o'yinlarga, onlayn muloqotlarga bog'liq”, deb aniq aytish uchun quyidagi shartlardan hech bo'lasa bir nechtasi bajarilishi lozim deb o'ylayman:

- Inson kompyuter qarshisida o'tkazadigan vaqtini boshqa ishlarga, jumladan, sayrga chiqishga, ota-onasi, do'stlari, turmush o'rtog'i bilan bo'ladigan

jonli suhbatga, darslarni, uy ishlarini bajarishga va shu kabi ishlarga almashtira olmaydi.

- Monitor qarshisida bo‘lmagan vaqtlarida qattiq bezovtalik sezadi, jahldorlik, sal gapga siltab tashlash holati kuzatiladi. Ayrim hollarda jismoniy azoblar (bosh og‘rig‘, behuzur bo‘lishi va hokazo) ham bo‘ladi.

- Oddiy ko‘chadagi suhbatda ham kompyuterlar bilan bog‘liq atamalarni ishlatadi.

- Kompyuter oldida bo‘lmaganda inson klaviaturada ishlayotgandek yoki sichqonchani boshqarayotgandek harakatlarni amalga oshiradi; uxlayotganida kompyuteri buzilib qolganligi haqida yoki undagi ma‘lumotlar o‘chib ketganligi haqida yomon tushlar ko‘radi.

- Tarmoqda bo‘lmagan inson doimo bezovta bo‘ladi: yangi elektron xat kelmadimikan, chatda yoki forumdagi biron-bir qiziqarli suhbatni o‘tkazib yubormadimikan, Internetda bo‘lmagani uchun undan hech kim hafa emasmikan va hokazo (shu holat menda ham bor).

- Kompyuter oldida o‘tkazgan vaqtini inson hayotining eng yaxshi, baxtli, huzurbaxsh, osoyishta yoki hayajonli damlari deb biladi.

- Insondagi boshqa qiziqishlar yo‘qoladi, u oilasiga, maktabga ortiqcha e‘tibor bermay qo‘yadi, ovqatlanish va uyqu uchun vaqtini umuman ajratmaydi.

- Agar kompyuter o‘yinlariga bog‘liqlik bo‘lsa, ularni o‘ynayotgan inson qahramonlar roliga kirishib ketadi, haqiqiy vaqt tushunchasini yo‘qotadi. Masalan, inson o‘zini o‘rnida tasavvur qilayotgan o‘yin qahramoni halok bo‘lsa, bu inson ham o‘zini o‘ldirishi mumkin.

Bu keltirilgan xususiyatlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, kompyuterlarga bog‘lanib qolishlik kasalligiga, asosan, o‘qishda orqada qoladigan va o‘rtoqlari ko‘p bo‘lmagan o‘smirlar hamda 25-35 yosh oraliqdagi yakka holda hayot kechiruvchi, hayotidan va ishidan qoniqmaydigan erkaklar chalinadi. Ammo bu to‘liq beshga o‘qiydigan, sinf va maktab faoli bo‘lganlar kompyuterlarga o‘rganib qolmaydi degani emas. Faqatgina ularda bunga chalinish imkoniyati kam bo‘ladi.

Bizning mamlakatda hali bunday psixologik kasalliklar bo'yicha deyarli hech qanday muammolar mavjud bo'lmaganda, g'arb davlatlarida aynan shu kasalliklar bo'yicha maxsus davolovchi markazlar tashkil etilgan. Menimcha, yaqin kelajakda O'zbekistonda ham shunday markazlar tashkil etish kerak bo'ladi. Sababi informatsion texnologiyalar rivojlanishi va Internetning aholi o'rtasida keng tarqalishi natijasida bu muammo dolzarb bo'lib qoladi.

Shu yerda bir o'xshatishni keltirish mumkin: kitoblar ham ilk bor vujudga kelganda ancha mashhur edi, avval jamiyatning yuqori qatlamlari orasida. Keyinchalik eng qashshoqlar ham sotib olmaganda, kutubxonalardan olib o'qish imkoniyatiga ega bo'lishdi. Hozirga kelib esa kitoblarsiz hayotni tasavvur qilib bo'lmaydi. Buni radio haqida ham, televideniye haqida ham, va nihoyat, Internet tarmog'i haqida ham aytish mumkin.

Bu o'xshatishni nimaga keltirdim? Gap shundaki, Internet yangilik bo'lganda, axborotning ilk manbasi emas. Balki salbiy jihatlari ham bor, ammo asosiysi u, avvallari kitoblar, radio, televideniye bajargan vazifani – taraqqiyotni oldinga siljitishni amalga oshiradi.

Agar me'yorini bilsa, Internetni o'zi hech qanday xavf tug'dirmaydi. Aynan ana shu me'yorni ko'pchilik odamlar bilishmaydi. Bu esa qayg'uli oqibatlariga olib kelishi tayin. Axir kompyuter yonini tark etib biron-bir hiyobonda aylanish naqadar yoqimli holat, shunday emasmi? Bunga esa ko'pchilikda doim vaqt yetmaydi.

Ana endi Internet bilan bog'liq yana bir dolzarb masala haqida gaplashsak. Internet, shubhasiz, foydali va kerakli texnologiya – bir necha soniyalar ichida siz o'zingizga kerakli ma'lumotlarni, rasmlarni topa olasiz, so'nggi yangiliklardan xabardor bo'lasiz. Hozirgi kunga kelib ma'lumotlar almashish tezligi shu darajaga yetdiki, endilikda biz Internetdan bemalol kinolarni, qo'shiqlarni, o'yinlarni, umuman xohlagan narsamizni yuklab olishimiz mumkin. Shuningdek, Tas-IX ichida bo'lgan saytlardan umuman tekin, hech qanday trafiksiz katta hajmli ma'lumotlarni yuklash mumkin. Bir necha yilgina avval 10 gigabaytli qattiq diskni

qanday to'ldirish muammosi mavjud bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunga kelib, hatto 500 gigabayt ham yetmay qolayapti.

Axborotga borgan sari hamma ega bo'lmoqda. Bir tomondan turli xil ma'lumotlarga ega bo'lishning ijobiy tomonlari bor. Masalan, avvallari, kam sonli chiqadigan kitoblarni topish ancha murakkab bo'lgan. Qo'lyozma nusxalarni aytmasa ham bo'ladi, ularga faqat maxsus ruxsatnomasi borlarga ega bo'lgan. Hozirchi? Qidiruv satriga kitobni nomini yoki muallifini kiritganingiz zahoti sizga shu kitobni yoki muallifning barcha asarlarini topib beradi. Zo'rmi? Albatta, bu juda ajoyib. Ammo, yaqinda bir o'rtog'im bilan bo'lgan suhbatda hammasi ham yaxshi emasligiga amin bo'ldim.

Biz avvalari bo'lgan holatni esladik: qish paytida kitoblar do'koniga kelasiz va sovuq qotgan qo'llarizga puflab kitobalrni ko'zdan kechira boshlaysiz. Va nihoyat, ko'p vaqtdan buyon qidirib yurgan kitobni ko'rib qolasiz. Qaltiragan qo'llaringiz bilan pulingiz yetish-yetmasligini tekshirib ko'rasiz. Agar pulingiz yetmasa, sotuvchidan siz tanlagan kitobni yarim soatga olib qo'yishini so'rab, uyingizga pulni olib kelishga yugurasiz. Mana kitob do'konidan o'sha siz uchun qimmatbaho bo'lgan kitobni olib uyingizga qaytasiz. Uyda esa sizni haqiqiy bayram kutib turadi – kitobni ilk bor o'qish. Yangi chop etilgan kitob sahifalarining hidi naqadar yoqimli bo'lishini faqatgina uni o'qigan insongina biladi. Kunduzi bu kitoblar siz bilan maktabga, universitetga sayr qilsa, kechqurun o'z tafti bilan sizni isitadi. Har bir kitobni qayerdan va qachon sotib olganingizni bilasiz, har birining o'z tarixi bor.

Hamma narsa u paytlarda qadrli va muhim bo'lgan – disklar, kitoblar, PlayStation uchun o'yinlar. Sababi ular asta-sekinlik bilan, mehnat va quvonch bilan qo'lga kiritilgan.

Hozirda esa nimaga ega bo'ldik? Son-sanoqsiz fayllar bilan to'lib ketgan vinchesterlarga. Kinolar, kitoblar, o'yinlar – hammasi disklarga yozib qo'yilgan va qator qilib terib qo'yilgan. Oxir oqibat bu ma'lumotlar to'plami ichidan qanchasidan foydalanamiz – 5%, 10% mi? Shunisi ma'lumki, ularning katta qismi “kadr ortida”, ko'rilmay, o'qilmay, eshitilmay va foydalanmay qolib ketadi. U

holda bunday “g‘amlab qo‘yishlik” nimaga kerak? Meni o‘zim ham bu savolga qiynalib javob beraman. “Shunchaki bo‘lishi kerak”, degan xulosaga kelaman.

Avvaliga allaqanday quvonch bo‘lgan edi, ixtiyoriy ma‘lumotga tekinga (faqat Internet uchun pul to‘lanadi) ega bo‘lish mumkin, qanchadan-qancha narsani bilish mumkin, o‘qish mumkin, ko‘rish mumkin... Oqibatda qadrsizlangan axborotga ega bo‘ldik. “Tonnalab” qadrsizlangan ma‘lumotlar. Boshqalarda qanday bilmadimu, ammo menga bu holat avvalgidek quvonch keltirmaydigan bo‘ldi. Shuning uchun sizlarga bir maslahatim bor: “Internetdan ehtiyot bo‘ling!” Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari shiddat bilan rivojlanib borishi natijasida internetdan foydalanuvchilar soni kun sayin, soat sayin ortib bormoqda. Internetning global tarmoqqa aylanib ulgurganini hatto sezmay ham qoldik. Bu dunyoda nafaqat axborotlashgan jamiyatni yuzaga keltirdi, balki jahon hamjamiyatida globallashuv jarayonlarini tezlatib yubordi.

Internet va terror

Ma‘lumotlarga ko‘ra, dunyoda terrorchilar foydalanadigan 5000dan ziyod internet saytlari mavjud bo‘lib, ularga xizmat ko‘rsatadigan portallar soni kun sayin oshib bormoqda. Bunday veb-saytlar to‘satdan paydo bo‘ladi, vaqt o‘tgach yo‘qoladi, mazmunini o‘zgartirmagan holda, tez-tez nomini va domenini o‘zgartirib turadi.

Nega terrorchilar internetdan ko‘p foydalanishyapti?

1. Internetga kirish osonligi uchun
2. Foydalanuvchilar sonining ko‘pligi uchun
3. Aloqaning anonimligi uchun
4. Tashqaridan boshqarish va tahrir qilish cheklanganligi uchun
5. Axborotlarni qisqa muddatda keng makonda tarqatish mumkinligi

Internet ham boshqa kashfiyotlar kabi inson intellektual salohiyatining mahsulidir. Ushbu tarmoq yordamida istalgan ma‘lumotlarga juda tez vaqt oraliq‘ida erishishimiz, masofadan turib ta‘lim olishimiz, xorijda yashayotgan qadrdonlarimiz bilan suhbatlashishimiz, elektron adabiyotlardan bahramand bo‘lishimiz mumkin. Internetdan foydalanuvchilar soni esa yanada ko‘payishi aniq. Chunki texnologik taraqqiyot mislsiz sur‘atlarda rivojlanmoqda.

Albatta, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi ijobiy ko'rsatkichdir. Uning imkoniyatlaridan to'g'ri va oqilona foydalanish insoniyatga ham, jamiyatga ham faqat foyda keltiradi. Aslida kashfiyotlardan maqsad ham aynan shu. Shunday bo'lsa-da, tanganing ikkinchi tomoni ham bo'lganidek, bu taraqqiyotning salbiy tomonlari ham kam emas. Gazetamizning avvalgi sonlarida ushbu mavzudagi maqolalarni ko'zdan kechirib borgan o'quvchi, ha, yana shu gapmi, deya e'tiroz bildirishi ham mumkin. Ammo, ayni masalaga chuqurroq yondashsak, bu mavzu sira eskirmasligini, doim dolzarb bo'lib qolishini bilib olamiz. Sababi, mavzu diqqat markazida kelajagimiz egalari bo'lgan yoshlar turibdi...

Bugun aksar xonadonlarda shaxsiy kompyuterlar, noutbuklar mavjud va ularning ko'pi internetga ulangan. Har bir aqlli inson hayotda farovon yashashi, fan-texnika yutuqlaridan foydalanishi uchun barcha sharoitlarni yaratgani yaxshi va bu e'tirofga sazovor. Ammo, hali hayotning past-balandini yaxshi bilmagan, hayotiy tajribasi yetarli bo'lmagan yoshlarimiz uchun internet ma'naviy tahdidlarning manbaiga aylanib borayotganidan ham ko'z yumib bo'lmaydi.

Dunyo paydo bo'libdiki, odamzod bir-biriga tish qayraydi, biri biridan ustun bo'lishga intiladi. Oddiy qabilalar o'rtasida boshlangan janjallar davlatlararo, qit'alararo katta urushlarga aylanib ketgani tarixdan ma'lum. Bu yo'lda insoniyatni mavh etuvchi qancha-qancha qirg'in qurollari o'ylab topildi va amalda sinaldi. Yer yuzini larzaga solgan Ikkinchi jahon urushi dunyo davlatlarining ko'zini ochgandek bo'ldi. Jahonda tinchlikni saqlash uchun o'zaro yarashuvlar bo'ldi, bitimlar tuzildi, turli xalqaro tashkilotlarga asos solindi. Go'yo shu bilan dunyoda tinchlik o'rnatildi, hammasi olam guliston. Lekin oradan hech qancha vaqt o'tmay dunyo xalqlari yangi bir urush girdobiga tushib qoldilar. Bu axborot urushi edi. Internetning kashf etilishi axborot urushi ko'lamini juda kengaytirib yubordi. Ushbu urushning avvalgilaridan farqi shundaki, bu usulda insonni jismoniy yo'q qilish shart emas, balki uning ongi egallansa bo'ldi. Odam yetovdagi qo'ydek kim qayerga yetaklasa indamay ketaveradi.

Gap shundaki, bugun dunyodagi gʻaraz niyatli kimsalar internet imkoniyatlaridan foydalanib, oʻz maqsalariga erishishga intilmoqdalar. Masalan, tarmoq saytlaridagi turli tanishuv sahifalari va ijtimoiy tarmoqlarda biz va biz kabi xalqlar madaniyati, maʼnaviyati va maʼrifatiga tahdid soladigan behayo va pornografik mazmundagi materiallarni koʻpaytirish ortida yoshlar ongidan oilaning muqaddas dargoh ekanligini oʻchirib tashlash harakati yotibdi. «Ommaviy madaniyat» targʻibotchilarining gʻayriinsoniy maqsadlariku tayin: yoshlarning madaniy ongi toʻgʻri shakllanishiga salbiy taʼsir koʻrsatib, ularni xudbin qilib voyaga yetkazish. «Senga erkinlik beriladi, hattoki ota-onang ham senga xoʻjayin emas, yoshligingda ayshingni surib qol, koʻngling tusagan ishni qil», degan safsatalar orqali yoshlarni har qanday dindan va madaniyatdan chalgʻitish va jamiyat oldidagi masʼuliyatini yoʻqqa chiqarish, farzandlik burchlaridan, insoniylikdan begona qilish. Muqaddas islom dinini niqob qilib, oʻzlarining jirkanch maqsadlariga erishish yoʻlida internetdan foydalanayotgan noqonuniy oqimlar sonining koʻpayib borishi natijasida yoshlarimiz bilib-bilmay ularga qoʻshilib qolmoqda... Bu kabi maʼnaviy tahdidlarga oid misollarni yana koʻplab keltirishimiz mumkin.

xavotir asosli!

— 49 foiz kompyuter oʻyinlari zoʻravonlik va yovuzlikni targʻib qiladi;

— Jahon boʻyicha kompyuterlardan foydalanuvchi 42 foiz bolalar va oʻsmirlar pornografik saytlarga qaram boʻlib qolgan, ularning 8 foizi buni ota-onasidan yashirmaydi;

— 38 foiz bola zoʻravonlik ruhidagi saytlarni, 26 foiz bola millatlararo adovat urugʻini sochuvchi veb-saytlarni muntazam kuzatib boradi.

— Fransiya Sogʻliqni saqlash vazirligi hisobotiga koʻra, mamlakatda 8dan 18 yoshgacha boʻlganlarning 87 foizi internetdan mustaqil foydalanadi. Yoshlarning 61 foizi uchun internet — sevimli ermak, 49 foizi uchun televideniya, 35 foizi uchun kinodan afzaldir.

hatto...

BMT Bosh assambleyasi 2006 yilning 8 sentyabrida Global aksiterror strategiyasini qabul qildi. Unda yangi uslublar qatorida bioterrorizm hamda internetdan terrorizm maqsadida foydalanishning oldini olish choralari kuchaytirish lozimligi alohida qayd etilgan.

Xullas, axborot xurujining boshida turganlar ming tusda turlana oladi — bir dumalab soqol-mo‘ylovli «mulla»ga, bir dumalab esa «demokratiya jarchisi»ga aylanishga qodir. Turli «homiyluk tashkilotlari»ning «saxovatpeshasiga» aylanish esa ularga mushkul emas. Chunki ortlarida millionlab dollarlarni sarflar turgan suyanchiqlari bor. Ular anoyi emas, pullarni shunchaki havoga sovurmaydilar. Axir aytishadiku, tekin pishloq faqat qopqonda bo‘ladi, deb.

Shunday ekan bugungi kunda barchamiz, ayniqsa, ziyolilar yoshlarimizni internetning salbiy ta’sirlari domiga tushib qolmasligi haqida qayg‘urishimiz, bu boradagi amaliy ishlarni bir zum ham to‘xtatmasligimiz lozim. Bu borada, eng avvalo, ota-onalar farzand tarbiyasining qanday ahamiyatga ega ekanligini unutmasliklari darkor. Shuningdek, yoshlar ta’lim olayotgan o‘rta maktablar, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari hamda oliy ta’lim dargohlarining o‘qituvchilari nafaqat o‘zlarining fanlaridan samarali ta’lim berishlari, balki yoshlarning vaqtdan qanday foydalanishlaridan ham doimo xabardor bo‘lishlari kerak. Zero, yoshlarimiz ongida porloq istiqbolga qaratilgan ezgu maqsadlar shakllangan va ularga erishishni ta’minlovchi vazifalar mavjud bo‘lsa ular ko‘plab ijobiy natijalarni qo‘lga kiritadilar. Yoshlarimizda internet xavfsizligi bo‘yicha immunitet shakllangan bo‘lsa, ularga hech qanday tahdid o‘zining g‘arazli ta’sirini o‘tkaza olmaydi. Yoshlar bizning kelajagimiz, ularni «o‘rgimchak to‘ri»ning salbiy ta’sirlaridan himoya qilaylik!

1.4. Internetdagi ijtimoiy tarmoqlar va o‘quvchi yoshlar tarbiyasi masalasi

Insoniyat tarihi urushlar tarixidir... Ibtidoiy jamoa tuzumida bir parcha go’sht ilinjida boshlanishgan ixtilof keyinchalik yashash uchun go’zal va qulay makonlar izlash, boshqa qabilalarni qo‘lga aylantirish orqali ularga mutlaq

xukumronlik qilish istagini uyg'otdi. Garchi sivilizasiya davrida insoniyat taraqqiyot cho'qqisini egallasa-da, ammo urushlar kamaymadi.

Ming afsuski, urushlar tarixi XXI asrda ham davom etmoqda. Buni anglash uchun keyingi o'ttiz yil davomida mudxish taloto'plar ro'y bergan mintaqa va davlatlar nomi tilga olinsa bas.

Ha, chindan ham insoniyat tarixi urushlar tarixi bilan chambarchas bog'langan. Ammo ko'z o'ngimizda o'zining ko'rinmas iplari bilan butun-butun yurt va mintaqalarni, hatto ulkan sayyoramizni ham o'z izmiga solish istagida yana bir urush kechmoqda-ki, bu mafkuralar va ma'naviy tahdidlar jangidir.

Bu urushda raqibni ko'rish ham mumkin emas. Ammo u bor. Buning ustiga, har qanday ma'naviy tahdidning o'ziga yarasha hamkorlari, ta'bir joiz bo'lsa, maqsad yo'nalishi qaratilgan makondagi o'z odamlari bo'ladi. Ularni ehtimol tushunchamizdagi ayg'oqchilar, deb bo'lmas. Lekin ularni hych bir ikkilanmay ma'naviy tahdid jarchilari, ana shu millatni jarchilari, ana shu illatni boshqalarga ham tarqatib yurgan ma'naviy nogironlar, xastalar deb atash mumkin. Bular o'zlariga zamonaviylik, yashashning so'nggi urfidek tuyuladigan har qanday xorij yangiligini tiz cho'kib tavob qilishga tayyor, uni ko'r-ko'rona taraqqiyotning oliy namunasi, deb e'tirof etadigan kishilardir.

XXI asr boshida Jaxon banki tomonidan e'lon qilingan "Globallashuv, iqtisodiy o'sish va kambag'allik" nomli ma'ruzada qayd etilishicha, o'tgan asrning saksoninchi yillarida boshlangan globallashuvning uchunchi to'lqini uch milliarddan ko'proq kishining turumush tarziga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsata boshlagan. Natijada intergrasiya jarayoni keskin kuchaydi. Bu garchi iqtisodiy jihatdan o'z samarasini bersa-da, biroq ayni paytda globallashuv shiori ostida davlatlarni bir xillashtirishga, bir xil qoidalarga asoslangan hayot, bir xil qadiriyyat, bir xil odat va axloq qoidalariga bo'ysunishga qudratli kommunikasiya vositalari orqali yoshlar ongiga ta'sir ko'rsatishga keng maydon ham yaratib berdi.

Bugun dunyoning sog'lom fikrli ziyolilari ham dunyo miqiyosidagi globallashuv jarayonining, xususan, zo'r berib targ'ib etilayotgan "Ommaviy ma'daniyat"ning ko'plab xalqlar uchun salbiy ta'sirini e'tirof etmoqdalar.

Albatta, ma'naviy tahdidlarga salbiy munosabatda bo'lishning o'zi yetarli emas. Bunday tahdidlarning tabiati, ildizi, manbalari va o'zaro aloqalarini chuqur anglab yetganimizdagina ularga qarshi turish oson kechadi.

Mushohada yuritsak, bunday xurujlar asosida biz yovuz maqsad yotganini sezamiz.

Shuning uchun ham ma'naviy tahdidlarga nisbatan ko'plab mamlakatlarda izchil kurash olib borilayotir. Mana bir misol. Uch-to'rt yil avval Rossiyada Amirikaning "Janubiy park" (South Park) multfilmi prokratura xodimlari tomonidan ekstremistik mazmundagi "asar" deb topildi. Holbuki, bu multfilm Rossiyaning "2x2" telekanali orqali allaqachon namoyish etilgan edi. Mutaxassislar "multfilm mazmuni aksariyat tomoshabinlarga salbiy ta'sir etishi mumkin, chunki u ham xristionlarning, ham musulmonlarning sha'ni va g'ururini toptaydi, dindorlar hissiyatini haqoratlaydi, ayni paytda shafqatsizlik va zo'ravonlikni targ'ib etadi", degan xulosaga kelishgan.

Darhaqiqat, ko'p xolatlarda "Ommaviy madaniyat" niqobi ostida zo'ravonlik, faxsh, axloqsizlik g'oyalari turg'ib qilinayapti. Bu "madaniyat"ga uchgan xar qanday millatning esa nechaming yillik qadiryatlari, ma'naviy boyliklari o'z ta'sirini yo'qotishi yoki qadirsizlanishi aniq.

"Ommaviy madaniyat" asosini "Avval men, keyin boshqalar!" ko'rinishidagi g'arbona egosentrizm g'oyasi tashkil etishini ham alohida ta'kidlash joiz. Ko'xna Sharqda esa oilaga, jamoaga intilish, ular manfaatini ustun qo'yish an'anasi ming yillar davomida o'zining ijobiy natijalarini berib kelgan.

Shu o'rinda bugungi fan texnika rivojlanishi, axborot-kommunikasiya texnologiyalarining beqiyos taraqqiy etishi axborot almashinuv jarayonlarini tezlashtirib yuborganini ham ta'kidlash joiz.

Ayni paytda mo'jazgina kulbadan turib ham bir necha daqiqalarda butun dunyoga turli xildagi axborotlarni tarqatish mumkin bo'lib qoldi. Ammo ijtimoiy hayotimizga kirib keladigan har bir ijobiy narsa o'z ortidan bir qator salbiy oqibatlarni yetkazib kelishi ham tabiiy xol ekan. Bir so'z bilan aytganda, olam va odam yuksak taraqqiyot asnosida juda o'tkir, ta'bir joiz bo'lsa, global muammolar

bilan ro'baro kelmoqda. Global ekologik muammolar, terorezmning global xarakteri, parkatirafik va uyushgan jinoyatchilik XXI asrda xaqiqatdan ham insoniyatga jiddiy tahdid sola boshladi. Ayni shunday murakkab bir vaziyatda "Axborot xuruji" deb atalmish balo ham paydo bo'ldi-ki, uning oqibatlarini yon atrofimizda sodir bo'layotgan voqyea hodisalar ham ko'rsatmoqda. Aytaylik, internet deb atalmish ulkan aloqa maydonida turli xalqlar mintalilititiga, ming yillar davomida shakillangan o'ziga hos xarakterga yod bo'lgan axborotlar joylashtirilib, ular yoshlar ma'naviyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Yana bir e'tiborli jihati-ushbu raqam kuniga 200-250 kishiga ko'paymoqda. So'nggi ikki oyda Xitoyda olib borilayotgan "Internetdagi jinoyatlar"ga qarshi kurash kompaniyasida mamlakat xuquq tartibot idoralari 1065 kishini qo'lga oldilar

Internetni tartibga solish bo'yicha kampaniya Xitoy rasmiylarining fikricha, asosan Forum va ijtimoiy tarmoqlarga siyosiy mishmishlar va boshqa "zararli" axborot chiqib ketishining olidni olishga qaratilgan.

Sinxua agentligining xabar qilishicha, o'tgan ikki oy mobaynida "mish-mish va uydirma tarqatish"ga daxildor 16 ta veb-sayit yopilgan, 208 mingta "zararli" onlayin xabari o'chirib tashlangan "Internet orqali mish-mish tarqatish xalqimiz manaatlariga ziyon yetkazuvchi, davlat xavfsizligi va ijtimoiy barqarorlikni yemiruvchi jiddiy muammoga aylandi", deyiladi Xitoy Internet assosiasiyasi tomonidan tarqatilgan bayonotda 2011 yil oxirida Xitoyda internetdan foydalanishga mukkasidan ketgan minglab kishilar o'zlarining real xayotidagi oilaviy va ijtimoiy munosabatlari, o'qish va ish jarayonidagi majburiyatlariga masulyatsiz yondasha boshlaganlar. Masalan, Gallup tadqiqot agentligi ma'lumotlariga ko'ra, AQSh va Kanadada har uchunchi oilaning ajralashiga aynan ijtimoiy tarmoq sabab bo'lmoqda. Afsuski, o'sishtendensiyasini namoyon etayotgan ushbu xolatni Yevropada ham kuzatish mumkin.

Bugun dunyoda ana shu muammoni davlatlar o'zlaricha yechishga urinayotgan xolatlar ham yo'q emas. Biroq davlatlarning yakka tartibda ijtimoiy tarmoqlarni xuquqiy tartibga solishga qaratilgan urinishlari hali-beri kutilgan

natijalarni bermayapti. Internetning global xususiyatini e'tiborga olib, shuni alohida ta'kidlash lozimki, undagi ijtimoiy tarmoqlardan xuquqiy tartibga solishda xalqaro hamkorlik hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtai nazardan ham tahlilchilar nufuzli xalqaro tashkilot – BMT doirasida Internetni, shu jumladan, undagi ijtimoiy tarmoqlarni, xuquqiy tartibga soladigan maxsus xalqaro normativ xujjat ishlab chiqilishi va qabul qilinishi maqsadga muvofiqligini ta'kidlamoqdalar.

- Bu yilgi media-konferensiya oldingilaridan farq qiladi, - deydi O'zMU internet jurnalistika nazariyasi va amaliyoti kafedrasini mudiri, siyosiy fanlar nomzodi, dosent Sherzodxon Qudratxo'jayev. – Oldingi konferensiyalarda asosan universitetimiz talabalari ishtirok etishga bo'lsa, butun yurtimizning ko'plab oliy o'quv yurtlaridan yoshlar tashrif buyurishgan. Yildan-yilga ishtirokchilar, hamkorlik qilishni istovchilar soni ortib bormoqda. Keyinchalik bu kabi media-konferensiyalarni respublikamizdagi boshqa ta'lim muassasalarida ham o'tkazmoqchimiz. Konferensiyani viloyatlarga on-layn tizimida ko'rsatish rejasi ham bor.

- Internet poydevorlar bilan hamkorlikda tayyorlangan tahlillarga ko'ra 2011 yilda O'zbekistonda 7 million 550 ming kishi internetdan foydalangan bo'lsa, 2012 yilga kelib bu raqam 8 million 800 mingga yetdi, - deydi O'zMU jurnalistika fakulteti talabasi Muzaffar Durdiyev.

- Hozirgi kunda yurtimizda faoliyat ko'rsatayotgan ko'plab korxonatashkilotlarning internetda o'z veb-saytini ochayotgani quvonarli xol, - deydi O'zMU jurnalistika fakulteti talabasi Boburmirzo Mirzaaxmedov. – “Microsoft” kompaniyasining asoschisi Bill Geyts “Kelajakda faqat ikki xil kompaniyalar bo'ladi: internet bilan hamkorlik qiladigan va beznisdan ketgan kompaniyalar” degan edi. Darhaqiqat, har bir muassasa uchun o'z veb-saytini yaratish va uni so'nggi yangiliklar bilan to'ldirib turish muhim masalaga aylanishi kerak.

- Butun internet bunyodkor va vayronkor g'oyalar maydoniga aylanib bo'ldi, deydi O'zMU jurnalistika fakulteti talabasi Gulnoza Sharipova. – yaqin-yaqingacha internet faqat virtual ko'rinishda edi, hozir reallikka yetib keldi.

Bugungi kunda dunyoda millionlab ishsizlar internet orqali o'zlariga ish topadilar. Ko'plab yoshlar xorij o'quv yurtlariga internet orqali o'qishga kirishyapti. Ayni paytga kelib ko'plab imkoniyati cheklangan odamlar ham internetdan keng foydalanmoqda. Ayniqsa, masofadan turib o'qitish usuli ularga qo'l kelmoqda. Internet xayotimizda ko'plab o'zgarishlar qilish barobarida uni izdan chiqarib yuborishi ham mumkin. Ayniqsa, yolg'on xabarlar, nopok insonlar tomonidan to'qilgan mish-mishlar salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishiga ko'p bora guvuh bo'lganmiz. Shu boisdan ham internet jurnalistikada faqat manbalarga tayangan xolda xabar tarqatishni amalga tatbiq etishimiz kerak.

Midia-konfrensiyaining ikkinchi qismida 16 ta nominasiya bo'yicha g'oliblarga esdalik sovg'alari topshirildi.

- Men "Eng yaxshi talabalar sayti" nominasiyasida g'olib bo'ldim, - deydi O'zMU jurnalistika fakulteti talabasi Jamshidbek Namozov. – Tayyorlagan saytim xay'at a'zolariga ma'qul kelganidan xursandman. Hozirgi kunda ayrim yurtdoshlarimizda internetga nisbatan salbiy qarashlar shakillanib qolgan. Biz xalqimizga internetning faqat yaxshi jihatlarini ko'rsatishga ma'sulmiz va shu yo'lda harakat qilyapmiz. Toki yoshlarimiz internetdan qora niyatlarda foydalanayotgan kimsalarning ta'siriga tushib qolmasin. Buning uchun foydali saytlarni ko'proq ochish va ularning ommaviyiligini ta'minlash talabetiladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek internetga bir yoqlama yondashib bo'lmaydi. Hozirgi kunga kelib u mavjud OAVning barcha imkoniyatlarini jamlay olgani (vidio, audio, matn) hisobga olsak, undan faqat to'g'ri yo'lda foydalansak ko'zlangan maqsadga erisha olamiz. Sohaning kuchli mutaxassislaridan biri "Siz internetda mavjud emasiz" degan edi. Bu aslida nisbiy fikr. Ammo qaysidir ma'noda haqiqatga yaqin. Hammamiz internetdan foydalanishimiz kerak. Faqat ezgu niyatlarda, yaxshi amallar uchun. Zero, bizga faqat ezgu ishlar yarashadi.

II-bob. Internetning o'quvchilar ma'naviy-axloqiy hayotiga ta'sirini o'rganish

2.1. Ta'lim muassasalarini rivojlanishiga oid internetdan olingan ma'lumotlar

Bugungi kunda internetdagi ijtimoiy tarmoqlar ayniqsa yoshlar orasida ommalashib bormoqda. Yurtimizda internetdan foydalanuvchilarning aksariyati «Odnoklassniki.ru», «Facebook.com», «V.kontakte», «Moymir», «Twitter» kabi tarmoqlarda o'z profillariga ega. Biroq keyingi yillarda mazkur tarmoqlarning yoshlar tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan jihatlari ham ko'zga tashlanayotgani ko'pchilikni tashvishga solmoqda.

So'rovnomani o'tkazishdan maqsad ham mazkur masala yuzasidan o'quvchilarimizning fikrlarini o'rganish edi. Bir hafta davomida 110dan ortiq ishtirokchi «Internetdagi ijtimoiy tarmoqlar yoshlar hayotida qanday o'rin tutadi?» so'rovnomasiga o'z munosabatlarini bildirishdi. Qizig'i shundaki, o'quvchilarning 32 foizi ushbu tarmoqlar do'stlar orttirish, manfaatli tanishuvlar uchun kerak degan fikrni ma'qullagan bo'lsa, yana shuncha foydalanuvchi tarmoqlarning yoshlar tarbiyasi va odob-axloqiga salbiy ta'sir ko'rsatayotganini tan olgan. Demak, bugun ijtimoiy tarmoqlar qanchalik ommalashmasin, uning salbiy oqibatlarini ko'ra bilayotganlar safi ham oshib bormoqda. So'rovnomaning to'liq natijasi bilan tanishing:

Savol:

Internetdagi ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar hayotida qanday o'rin tutadi?

1. Do'stlar orttirish va manfaatli tanishuvlarga yordam beradi — 32 (26.9%);
2. O'z fikrini erkin bildirish imkoniyatini beradi — 24 (20.2%);
3. Yoshlar tarbiyasi va odob-axloqiga salbiy ta'sir ko'rsatadi — 32 (26.9%);
4. G'araz niyatli shaxslarning o'z manfaati yo'lida foydalanishi uchun bir vosita — 10 (8.4%);
5. Bekorchilikdan boshqa narsa emas — 21 (17.6%).

Eslatib o'tamiz, «Darakchi» gazetasining shu hafta nashrdan chiqadigan 16-sonida jurnalist Gulnoza Alimovanning «Sotsial tarmoqlar virtual narkotikmi yoki

ommaviy madaniyatning yangi bosqichi?» deb nomlangan maqolasi chop etiladi. Muallif mazkur maqolada ijtimoiy tarmoqlarning bugungi kunda yoshlar hayotida tutgan oʻrni haqida keng mushohada yuritadi. Oʻtkazib yubormang.

Ijtimoiy tarmoqlar va jamiyat

Hozirgi globallashtirish jarayonida va jahonda olamshumul oʻzgarishlar sodir boʻlayotgan bir paytda biz nafaqat aniq bir inson, balki butun jamiyat hayotiga oʻz taʼsirini oʻtkazib kelayotgan axborot texnologiyalarining ajoyib ixtirolaridan biri boʻlmish sotsial tarmoqlarni chetlab oʻtolmaymiz. Joriy vaqtda sotsial tarmoqlar deyarli butun dunyoni qamrab olgan. Ayniqsa, yosh avlod juda ham sotsial tarmoqlarni yaxshi koʻradi. Kinga internetda oʻz rasmlarini qoʻyish, olis masofadagi doʻstlar va qarindoshlar bilan gaplashish, oʻyinlar oʻynash, musiqa tinglash va soʻnggi yangiliklardan xabardor boʻlish, statuslarni tinmay oʻzgartirish yoqmaydi deysiz? Agar biz sotsial tarmoqlar soniga va ularning turlariga eʼtibor qaratadigan boʻlsak, ularning hammasini yoritishda bu maqola ojizlik qiladi. Keling biz eng mashhur sotsial tarmoqlar va ularga qancha foydalanuvchi aʼzo boʻlganligiga bir nazar tashlaylik: Facebook – 750 million, Twitter – 200 million, Qzone – 480 million, Odnoklassniki.ru – 100 million, V kontakte – 135 million va hokazo. Mana koʻrib turganingizdek, shu raqamlar insoniyatning qanchalik sotsial tarmoqlar ichiga kirib ketayotganligidan dalolat bermoqda. Tabiiyki, sizda savol paydo boʻlishi mumkin: bu yaxshimi yoki aksinchami? Albatta, koʻpchilik bu tarmoqlarni maʼqullaydi va unga ijobiy baho beradi. Chunki, hozir sotsial tarmoqlar boʻsh vaqtni oʻtkazishning eng yaxshi vositasi hisoblanadi.

Endi esa, keling, sotsial tarmoqlarnig bizning hayotimizga, dunyoqarashimizga, ongimizga, aql-u shuurimizga va sogʻligʻimizga qanday taʼsir etishi haqida fikr yuritaylik. Internetning zoʻr berib rivojlanishi bilan odamzod borgan sari meʼyorni unutib, uning girdobiga bexosdan tortilmoqda. Axir biz bir muhim narsani esdan chiqarmasligimiz darkor: real hayot boshqa, virtual hayot boshqa. Biz kundalik hayotda odamlar bilan jonli muloqotda boʻlamiz, jonli fikr almashinamiz va oʻzimizga kerakli boʻlgan xulosalarni chiqaramiz. Virtual hayot esa insonni tamomila dunyoqarashi va ongini oʻzgartirib yuborishi

mumkin. Keling, aynan shuni sotsial tarmoqlar misolida ko'raylik. Hozirda sotsial tarmoqlarning PR faoliyati va reklamasi juda rivojlanmoqda. Hatto 2010 yili amerikalik rejissor Devid Fincherning Facebook sotsial tarmog'i asoschisi Mark Tsukerberg haqidagi "Sotsial tarmoq" nomli badiiy filmi suratga olindi. Hozirgi zamonda ko'p yoshlar o'z vaqtlarini sotsial tarmoqlarda o'tkazishadi. Ular hatto darslarini, uy yumushlarini va o'z rejalarini ham yodidan chiqarib yuborishadi. Bu esa, sotsial tarmoqlarga qaram bo'lishdan boshqa hech gap emas. Yoxud boshqacha so'z bilan aytadigan bo'lsak, bu – psixologik qaramlikdir. Internet olamida sayyohat qilar ekansiz, ba'zilarning erta-yu kech "Online", "V seti", "Gotov k obuyenyu" kabi statuslarini ko'rasiz. Ushbu odamlar bamisoli sotsial tarmoqlarda "yashashadi". Ular uchun virtual hayot muammolari va tashvishlari har narsadan, jumladan real hayotdan ustun turadi. Bizning fikrimizcha, bu tendentsiya salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Chunki inson sotsial tarmoqlarda bo'lar ekan, u o'z hayotini faqat shu tarmoqlar orqali ko'radi, xulosalarni tarmoq nuqtai nazaridan va ulardagi a'zolar fikrlaridan chiqaradi, uning dunyoqarashi shu tarmoq doirasida shakllanadi, xullas bunday insonlarning ongi faqat bir olamda yashaydi. Inson real hayotidagi kamchiliklarini, siqilishlarini va muvaffaqiyatsizliklarini tarmoqda qoplashga intiladi. Rasmlar va ularga berilgan sharhlar, yangi do'stlar, yorqin lavhalar va tarmoqlararo uyushmalar odamni to'qinlantiradi. Internet ularning fikrlashini butunlay o'zgartirib yuboradi. Undan tashqari sotsial tarmoqlar g'arazgo'y odamlarning yovuz maqsadlariga xizmat qilishlari mumkin. Masalan, tarmoqqa qo'yilgan axborot va xabarlar boshqalar tomonidan o'g'irlanishi, buzilishi va boshqa tarmoq a'zolariga yuborilishi mumkin. Yoki firibgarlar qalbaki rasmlar va yolg'on ma'lumotlar bilan o'z maqsadlariga erishishlari mumkin. Hatto sotsial tarmoqlar butun boshli qotilliklar, isyonlar, urushlarga sabab bo'lishi mumkin. Masalan, zamonaviy fanda "informatsion urush" degan atama mavjud. Informatsion urush sotsial tarmoqlarda juda qo'l kelishi mumkin.

Ana endi hozirgi vaqtdagi voqyealar bilan sotsial tarmoqlarin bog'laylik. Ma'lumki, 2011 – yilning boshi butun jahonning diqqat – e'tiboriga sazovor

bo'lgan "arab inqiloblari" yoki "arab bahori" nomli voqyealar bilan boshlandi. Tunisda boshlangan davlat to'ntarishi zanjirli reaksiya bo'ylab Misr, Liviya, Suriya, Iordaniya, Yaman va boshqa arab davlatlariga tarqaldi. Bu to'ntarishlarga ahamiyat beradigan bo'lsak, harakatlarni boshlaganlar 18 – 35 yoshlardagi fuqarolar edi. Ya'ni, ular ham sotsial tarmoqlar ta'siri ostida bo'lib qolib, ularning boshqa o'lkalardagi do'stlari qanday yashayotganligini ko'rib o'z hayotlarini tubdan o'zgartirishga ahd qilishdi. Masalan, Misrdagi tartibsizliklar "Twitter inqilobi" degan nomni oldi. Qarangki, sotsial tarmoq qanchalik jamiyat hayotiga va davlat siyosatiga o'z ta'sirini o'tkaza oldi. O'ylashimizcha, bu dalil sotsial tarmoq ta'siriga tushgan yangi fuqarolik jamiyati shakllanishinig boshlanishidir. Yaqindagina ommaviy axborot vositalarida biz bir xabarga duch keldik. Ma'lumki, Saudiya Arabistonida ayollarga transport vositasini haydash taqiqlanadi. Arab dunyosida bo'layotgan voqyealarni kuzatib borgan Saudiya Arabistonidagi ba'zi ayol fuqarolar Facebook tarmog'ida o'z sotsial uyushmasini tuzishdi. Bu uyushmada ularni bir g'oya birlashtirib turdi, ya'ni ular ayollarni avtomobil haydashga va barcha taqiqlarni yo'q qilishga chaqirishgan. Yana bir misol. Shu yilning iyul oyida tinch Norvegiya aholisini larzaga solgan qo'poruvchilik xarakati ham tarmoqda o'z aksini topgan. 77 kishining shafqatsiz tarzda olamdan ko'z yumishiga sababchi bo'lgan Anders Breyvik ham o'z rejalarini Facebook tarmog'ida doimiy yoritib kelgan. Avgust oyining boshida, Angliya premyer – ligasi navbatdagi mavsumining ochilishini London shahrida yuz bergan o'smirlarning to'ntarishlari va tartibsizliklari kechiktirib qo'yishiga ozgina qoldi. Ularning vandalistik harakatlari poytaxtni butkul xonavayron qilib tashlashi mumkin edi. Bunda ham sotsial tarmoqlar yoshlarga juda qulay vosita bo'lib xizmat qildi. Ular o'zlarining barcha ishlarini va rejalarini Facebook orqali amalga oshirishdi, bu esa ommaviy tartibsizliklarni markazlashtirilgan holda boshqaruv texnik vositasi sifatida tushuniladi. Ushbu isyonlarning tashkilotchilari tarmoqdagi ishtirokchilarga ko'rsatmalar berib turishdi va yo'l – yo'riqlarni ko'rsatishdi. Mana biz sotsial tarmoqlarning xususiyatlari haqida yorqin dalillar asosida mulohaza yuritdik. Biz sotsial tarmoqlarga qarshi emasmiz, biz faqatgina

ularni real hayotimiz bilan farqi, ularni o‘zaro chalkashtirmaslik lozimligini aytib o‘tdik. Albatta, ulg‘ayib kelayotgan yosh avlod fan – texnika yutuqlaridan va axborot texnologiyalarining muvaffaqiyatlaridan foydalanishi kerak. Lekin dunyoda har narsa bilan foydalanishning o‘ziga yarasha me‘yori mavjud va ularni suiste‘mol qilmaslik lozim. O‘ylashimizcha, yoshlar bo‘sh vaqtini faqat sotsial tarmoqlarda o‘tirish bilan o‘tkazishlari noto‘g‘ri. Chunki, jonli, haqiqiy va real muloqot o‘rnini hech narsa bosa olmaydi. Yoshlar kitob o‘qishlari, o‘z ustilarida ishlashlari hamda ijtimoiy faollikni oshirishlari lozim. Tarmoqdagi faollik hech narsani belgilamaydi va inson to‘g‘risida haqqoniy bo‘lmagan ma‘lumotlarni saqlashi mumkin. Maqolamizga yakun yasas ekanmiz, biz sotsial tarmoqlarning hayotimizga bo‘lgan ta‘sirini rad etolmaymiz. Biz ongli ravishda sotsial tarmoq a‘zosi bo‘la turib, real hayot va virtual hayotni farqlay bilishimiz lozim.

2.2. Internet iskanjasi yoki internetning ijodiy faoliyatga ta‘siri

Internet... U haqida nimalarni bilamiz? Ulkan axborot makoni, musiqa va rasmlar ko‘chirib olish va ijtimoiy tarmoqlarda muloqot o‘rnatish... Bori shumi? Albatta, bu uning barcha imkoniyatlari emas. Hozirda global tarmoqda istagan ishimiz bilan shug‘ullanishimiz mumkin. Virtual do‘stlar orttirganlar, hatto uning vositasida baxtli oila qurganlar qancha. Kimdir ta‘lim olishda, kimdir yaxshi ish topib, turmushini farovonlashtirishda internet ko‘magiga tayanadi. Global olam aksar xasta kishilarning davo topishiga, turli ijtimoiy muammolarni hal etishiga ko‘makchi bo‘lmoqda. Vaqtni tejash, ish unumdorligini oshirish va hokazo ijobiy taraflari haqida yaxshi bilamiz va ko‘p bora ta‘kidlaganmiz. Ammo unutmaslik lozimki, har bir narsaning ijobiy xislati bilan yonma-yon salbiy jihatlari ham bo‘ladi. Internetning salbiy oqibatlarini bilish har birimiz uchun zarur, bu ko‘nikma bizga o‘ziga xos immunitet hosil qilishimizga, o‘zimizni va farzandlarimizni axborot texnologiyalari hamda internet olamiga to‘g‘ri yo‘naltirishimizga xizmat qiladi. Ayni shu mavzuda turkum maqolalarimizni e‘tiboringizga havola qilib borishni maqsad qildik. Birinchi maqolamiz — internetning inson sog‘lig‘iga ta‘siri haqida.

Internetparastlik Ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda internetdan jami foydalanuvchilarning qariyb 10 foizi — internetparast.

Bugunga kelib, olimlar internetparastlikni kashandalik, alkogolizm va giyohvandlik bilan yonma-yon qo'yishmoqda. Nahotki, u shunchalik xavfli?! Bir qarashda komputer va internet bezarar vosita: bolalar ko'chalarda bekorchilarga qo'shilmasdan, komputer qarshisida o'zlari yoqtirgan mashg'ulot bilan shug'ullanaptilar, intellektual o'yinlar o'ynayaptilar... Nega unda Butunjahon sog'liqni saqlash tashkiloti internetparastlik va komputer o'yinlariga mutelikni og'ir kasalliklar toifasiga qo'shdi? Mutaxassislarning e'tiroficha, komputer virtual hayoti yoshlarni xuddi narkotik kabi o'z domiga torta olarkan.

IZOH: Internetparastlik (Internet-addiksiya) — global tarmoqqa ulanishga haddan ziyod oshiqish va undan chiqib keta olmaslik.

Mulohazalarimiz internetning bevosita inson salomatligiga ta'siri haqida ekan, keling, uni turli yo'nalishlarga ajratgan holda tahlil qilib chiqamiz. Tahlillarda, tabiiyki, mutaxassislar xulosalariga tayaniladi.

Salbiy ta'sirlari:

Ruhiyatga

Har narsaning ozi shirin. Internetga haddan tashqari bog'lanib qolish ruhiyatga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Unga berilib ketish maishiy, ijtimoiy, oilaviy hayotga, o'qish va ishga bo'lgan ishtiyoqqa darz keltiradi. Bu jarayon bora-bora internetparastlikka olib keladi.

Kimberli Yang "internetparastlik" mavzuiga ilmiy nuqtai nazardan yondashgan birinchi olimlardan biri. U 1994 yili internetparastlikni aniqlovchi test ishlab chiqadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, quyidagilarni xavfli ogohlantirish (internetparastlikning alomatlari) sifatida qayd etadi:

- elektron pochta tinimsiz tekshirishga urinish;
- navbatdagi "onlayn" muloqotga oshiqish;
- o'tkazilgan "onlayn" muloqotdan huzurlanish;
- "onlayn" uchun sarflanadigan xarajatlarning ortib borishi.

Bunday alomatlar sizga bir qarashda juda oddiy va odatiy ko‘rinishi mumkin. Bu tadqiqot xulosasi chiqarilganiga qariyb 20 yil bo‘lganini e’tibordan chetda qoldirmang. Bugunga kelib vaziyat ancha jiddiylashgan. Ammo, har narsaning boshlanish davri bo‘ladi va uni o‘rganish orqali bugungi muammolarni teranroq tushunib yetish mumkin.

Kimberli Yang tadqiqotlariga qaytamiz. U internetparastlikning beshta asosiy shakllarini ajratib ko‘rsatadi:

1. Behayo saytlardan o‘zini tiya olmaslik;
2. Virtual do‘stlarga intilish — doimiy ravishda yangi tanishlar qidirish, tarmoqda virtual do‘stlar sonining haddan ortib ketishi;
3. Turli internet forumlarda vaqt o‘tkazish va muhokamalaridan chiqib keta olmaslik;
4. Web-syorfing. Tarmoq bo‘ylab to‘xtovsiz sayohat;
5. Onlayn komputer o‘yinlariga mukkadan ketish.

"Internet iskanjasi" muammosiga birinchi bo‘lib psixoterapevt-shifokorlar duch kelishgan. Bu xastalikka "Internetdan foydalanish oqibatida yuzaga kelgan nokimyoviy tobelik" tashxisi qo‘yildi. Unga duchor bo‘lganlar virtual hayotni shunchalik yuqori qo‘yadilarki, dearli butunlay real hayotdan voz kechadilar, kuniga 18 soatlab virtual olamda vaqt o‘tkazadilar. Internetparastlikning asosiy alomati "off-line vaqtida internetga kirishga haddan ortiq oshiqish va on-line vaqtida undan chiqib ketishga iroda topa olmaslik"da ko‘rinadi.

Real hayotdan uzoqlashish — bu ruhiy holatning o‘zgarishi. Ruhiy holatning bunday keskin o‘zgarishi ong va tafakkurni izdan chiqaradi.

Ko‘zga

Bugungi kunda millionlab kishilar internetda "ashaydilar". Bu odatning, tabiiyki, ko‘zga ham salbiy ta’siri bor.

Asosiy vaqtini komputer oldida o‘tkazadigan insonlarning 75 foizi ko‘rish bilan bog‘liq muammolarga duch kelar ekan. Uning alomatlari ko‘zning achishishi, qizarishi, ko‘zni harakatlantirganda og‘rishi, bo‘yin umurtqa pog‘onasida og‘riqlar, ishda tez charchash kabi holatlarda namoyon bo‘ladi. Komputer ekraniga yaqindan

uzoq tikilish, xona va monitor yorug'ligiga to'g'ri amal qilmaslik yanada jiddiyroq muammolarni keltirib chiqaradi, insonda uzoq masofani ko'rish qobiliyati pasayib boradi. Kompyuter qarshisida ko'zingiz odatdagidan ko'proq ochilib-yopilaptimi, demak, ko'zingiz nisbatan quruqlashib borapti. Bundan ayniqsa, kontakt linzasi borlar ehtiyot bo'lishlari lozim. Jarayon salbiy oqibatlarni yuzaga keltirishi mumkin: ko'zdagi tiniqlikning sustlashishi, jismlarning ikkita bo'lib ko'rinishi, yaqinni ko'ra olmaslik.

Kompyuterning ko'zga salbiy ta'sirini kamaytiruvchi maxsus mashqlar bormi, degan savol ko'pchilikni qiziqtiradi.

Monitor nuridan ko'zni himoya qilishda, eng avvalo, bir jihatga jiddiy e'tibor qaratish lozim. Monitorning kadrlar almashish chastotasi 75 Gsda turganida ko'rishga salbiy ta'sir ortadi. 85 Gs darajasi optimal variant hisoblanadi. Bundan ortiq ko'rsatkichlar ham to'g'ri kelmaydi: monitorning nurlanishi kuchayadi va foydalanuvchi salomatligiga ta'siri ortadi. Shuningdek, tanlanadigan mebelning ham o'rni bor. Monitor joylashgan stol kengroq bo'lishi va ko'z hamda monitor o'rtasidagi masofa 60-70 sm.dan qisqa bo'lmasligi lozim. Ekrandan ortiqcha nur taralmasligi ham muhim, buning uchun ish o'rni me'yorida yorug' bo'lishi kerak.

Konditsioner yoki ventilator ishlayotgan xonada o'tirgan bo'lsangiz, ko'z pardasidagi namlikni keragidan ortiq parlantirmaslik uchun uning shamoli bevosita yuzingizga urmasligini ta'minlang. Ko'zingizda zo'riqish sezilganda uni yopib, qovoq ustidan ko'z soqqasini sekin massaj qiling. Shuningdek, kompyuterda ishlaganda maxsus ko'zoynaklardan foydalanish mumkin.

Ko'zni himoyalashga yordam beradigan ayrim mashqlar:

Imkon qadar har 2 soatda ko'z, bo'yin va bel mushaklarini mashq qildirish zarur. Buning uchun boshni sekin aylantirish, yelkani oldinga va orqaga aylantirish, bel mashqi uchun bir necha marta egilib-turish kerak bo'ladi. Bu mashqlar yig'ilib qolgan zo'rlanishni tarqatishga yordam beradi.

Bir-ikki daqiqa "hech narsa"ga qarash lozim, eng yaxshisi deraza ortiga, uzoqlarga qarang. Diqqat bilan tikilish kerakmas, shunchaki xotirjam boqing.

Ko'zlarni yumib, ko'z soqqasini chapga, tepaga, o'ngga, pastga aylantirish va mashqni teskari yo'nalishda bajarish. 4 marta bir yo'nalishda, 4 marta teskari yo'nalishda. Mashqni zo'riqish bilan bajarmaslikka urining.

Yana ko'zni yumib, avval tepaga, so'ng pastga qaraysiz — 8 marta. To'g'ri yo'nalishga qaraysiz va 30 soniya ko'zni tez ochib-umasiz. 3 marta takrorlaysiz.

Insonning ko'rish qobiliyati ming yillar davomida shakllangan. Shuning uchun uning monitor nuriga moslashishi oson emas. Me'yorga amal qilmaslik ko'pchilik foydalanuvchilarda ko'z muammolaridan tashqari, bosh og'rig'i, horg'inlik, hatto yurak-qon tomirlaridagi, asab, oshqozon-ichakdagi va boshqa bir qator muammolarni ham keltirib chiqaradi. Bo'yin radikuliti, barmoq bo'g'inlaridagi xastaliklar, yuz terisidagi dermatitlar ham komputer oldida haddan ortiq ko'p o'tirish oqibatida yuzaga keladi.

Asabga

XXI asrda insoniyatni komputersiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Internetdan ma'lumotlar olish, o'qish va bilimni oshirish vositasida foydalanish boshqa, unga ko'ngilochar vosita sifatida qarash boshqa. Avstraliyalik shifokor Muborak Ali Rahamatulla qator tadqiqotlardan keyin shunday xulosaga keldi: internet bolalar ongiga salbiy ta'sir o'tkazadi. Gap shundaki, aksariyat yoshlar virtual olamni haqiqiy deb o'ylashadi va ular real hayotga moslashishga qiynala boshlaydilar. Shifokor o'z xulosasida, internetdan nazoratsiz foydalangan o'smirlarda jinsiy rivojlanish ham noto'g'ri kechishiga alohida urg'u bergan.

Ayniqsa, komputer o'yinlari yoshlarda unga bog'lanib qolish holatlarini yuzaga keltiradi. Bunday bemorlar uyqu buzilishi, bosh og'rig'i, kuchli hayajon, asabiylashish, kayfiyatning tez o'zgarishi, ko'rish qobiliyatining susayishi bo'yicha shikoyat qilishadi. O'smir bolalarda jizzakilik, qo'pollik, kattalarga behurmatlik ko'zga tashlanadi. Shu sababli ham har bir ota-ona bolasi komputer oldiga o'tirganida uning qanday o'yinlar o'ynayotgani bilan qiziqishi, bola ruhiyatiga salbiy ta'sir o'tkazadigan o'yinlardan ularni uzoqroq tutishi talab etiladi.

Umumiy talablar esa quyidagicha: bola komputer oldida sutkasiga 2 soatdan ortiq o'tirmasligi kerak. Xona yorug' bo'lishi va bola hamda monitor o'rtasidagi masofa 70 sm.dan yaqin bo'lmasligi lozim.

Umurtqa va bo'g'imlarga

Komputer qarshisida uzoq o'tirish suyaklarning noto'g'ri rivojlanishi (ayniqsa, bolalarda) va shunga bog'liq xastaliklar yuzaga kelishiga ham sababchi bo'ladi. Bilamizki, maktablarda bolalarning umurtqa pog'onasi va suyak rivojlanishiga salbiy ta'sir yetmasligi uchun 40 daqiqalik darsdan so'ng 5-10 daqiqa tanaffus beriladi. Endi komputer o'yinlariga mukkasidan ketgan o'smirlarning bir o'rindiqda soatlab o'tirishini ko'z oldingizga keltiring. Bunday yoshlarda vaqt o'tishi bilan og'ir oqibatlar yuzaga chiqa boshlaydi.

Shuningdek, doimiy o'tirib ishlaydigan kasb egalarida ham bu kabi xastalikka uchrash xavfi yuzaga keladi. Umurtqa pog'onasiga ortiqcha bosim tushmasligi o'tiradigan kresloning butligi va qulayligiga ham bog'liq. Shuningdek, dardning oldini olish uchun ish o'rnida bajariladigan yengil gimnastika mashqlarini odat tusiga aylantirish lozim (gazetamizning kelgusi sonlarida bunday mashqlarni bajarish uslublariga albatta to'xtalamiz). Bunda yon-atrofingizdagi hamkasblaringizdan iymannang. Unutmang: sog'liq — bebaho boylik.

Lutfillo Tursunov

Jamiyat rivojining bugungi bosqichi byevosita tyexnologiyalarning takomillashuvi bilan xarakterlanadi. Zamonaviy tyexnologik jarayonlar har qanday sohaga o'z ta'sirini o'tkazgani kabi axborot uzatish tizimiga ham tobora yangi o'zgarishlar olib kirmoqda. Intyernyet tarmog'i, ayni davrda, jahon bo'yicha shiddat bilan global auditoriyani egallab bormoqda.

Ma'lumki, hozirgi kunda jamiyatning asosiy boyligi va mulki — avvalgi davrlardagidek, moddiy buyum va quvvat emas, balki axborotdir. Shuning uchun jahon miqyosida kompyuter tarmoqlarini axborot bilan to'ldirish masalasi son jihatidan emas, balki taqdim etilayotgan axborotning sifati va yo'nalishi jihatidan jiddiy muammo bo'lib hisoblanadi.

O‘zbyekiston — tyelyekommunikatsiya tarmoqlarini modyernizatsiyalash, zamonaviy tyexnologiyalarni qo‘llash, yangi raqamli tyexnika vositalarini o‘rnatish, ularni optimallashtirish ishlari natijasida jahon axborot intyegratsiyalashuvi jarayoniga jadal sur‘atda qo‘shilishi ko‘zga tashlanmoqda.

Intyernyet madaniyat uchun nimalarga qodir va madaniyat Intyernyetga nima qo‘sha oladi? Bu borada fikrlar turlicha va ba‘zan kutilmagan javoblarni olish mumkin. Biroq barcha bir fikrni tasdiqlashi aniq: Intyernyet olamni boshqarmoqda, bunga shubha yo‘q, butun dunyoni anglashga va har qanday savolga javob topishga Intyernyet yordam byera oladi.

Intyernyet madaniyatga qanday ta’sir ko‘rsatishi va buning ijobiy yoki salbiy tomonlari ko‘proqmi dyegan fikrlar Intyernyet muhitidan ham tashqariga chiqib, syevimli mavzuga aylanib bormoqda.

Agar Intyernyetning madaniyat: san‘at, adabiyotga va adabiy muhitga ta’siri to‘g‘risida gap borganida tarmoq nashrlarining salbiy hamda xavfli tomonlarini ta’kidlash, bosma nashrning esa aksincha, yorqin tomonlarini birinchi o‘ringa qo‘yish foydalidir.

Ma’lumki, butunjahon tarmog‘ining madaniyatga ta’siri ikki omilga asoslanadi. Bulardan birinchi omil:

- bosma ishlab chiqarish monopoliyasining barham topishi. Intyernyetning ommaviylashib borishi bilan ishlab chiqaruvchi va matn hamda g‘oyalar istye’molchilari o‘rtasidagi ushbu vositachiga bo‘lgan zarurat yo‘qoldi. O‘quvchi-muxlislarga, istye’molchilarga mo‘ljallangan matnlarni tarqatish faoliyati va dyemak, matnlarni ishlab chiqish ham endilikda kitob nashri savdosiga bog‘liq bo‘lmaydi.

Ikkinchi omil:

- masofaning ahamiyati qolmasligi. Intyernyet bizga parlamyent kongryess, konfyeryentsiya holatini yaratadi, ya’ni Yer kurrasi turli burchaklaridagi barcha insonlar bir zalda yig‘ilgandyek bo‘ladilar. Barchasi shu yyerda va hozir sodir bo‘ladi, dyemak, faqatgina masofa emas, balki:

- vaqt tushunchasi ham ahamiyatsiz bo‘ladi. Katta jurnallarda nashr qilish vaqti — oylarga cho‘zilsa, Intyernyetda g‘oyalar va matnlar yuzaga kyelganidanoq nashr etiladi. Shunga muvofiq, bosma narshlardagi munozaralar ko‘p oy va yillarga cho‘zilsa, Intyernyetda bunga sanoqli kunlar kyetishi mumkin. Butunjahon tarmog‘ining bunday ixtiyoriyligi intyellyektual hayotning jadalligini ko‘p marotaba oshirishga qodir.

Intyernyetning fan va madaniyatga qo‘shadigan yangi hissasi ana shu ikki omilda namoyon bo‘ladi. Qolgan jihatlar esa yoki ularning natijasi, yoki Intyernyet paydo bo‘lishidan avvalgi (gipyertyest, turli xil adabiy o‘yinlar loyi-halar va boshqalar) yangiliklarning rivoji hisoblanadi.

Intyernyet va axborotlar olami kun sayin bizni turli yangiliklardan voqif etmoqda. Intyernyet yangi, hali hyech kimga tanish bo‘lmagan ismlar, atama va tyerminlar birinchi bor paydo bo‘layotgan makonga aylanib bormoqda. Bu endigina o‘z yo‘nalishlarini va muxlislarini topayotgan yosh mualliflar maydoni, shu bilan birga, bu ishlarni uddalay olmaganlar uchun osoyishta makondir.

Barchaga ma‘lumki, Intyernyet “nashri” — bosma nashrdan farq qiladi. Bosma nashrlarda muallif fikri uchun ommaviylashish ta‘minlanadi (oz bo‘lsa ham) — kitob do‘konlarida paydo bo‘ladi, tanqidchilar, bibliograflar va boshqalar nazariga tushadi. Barcha o‘quvchilar ommasi bo‘lmasa ham, hyech bo‘lmaganda yangiliklarni doimiy kuzatuvchilar yoki vaqti-vaqti bilan kitob do‘konlariga kirib turuvchilar kitob to‘g‘risida bilib oladilar.

Intyernyetda nashr etishda ommaviylashish alohida masalaga aylanadi. Intyernyet — faol izlashga mo‘ljallangan muhitdir. Shu bilan birga, undan foydalanuvchilar Intyernyet bo‘yicha sayr qilishda ma‘lum byelgilangan bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlari zarur.

So‘nggi vaqtlarda Intyernyet taraqqiyoti, uning madaniyat kyelajagiga ta‘siri haqidagi turli bahs — munozaralarda dolzarb mavzulardan biriga aylanmoqda. Axborot uzatish tizimi fan va madaniyat sohalariga jadallik bilan yangi o‘zgarishlar olib kirmoqda. Bugun Intyernyet o‘zida kutubxona, matbuot, radio va tyelyevidyeniyye imkoniyatlarini ham mujassam etmoqda. Shu jahatdan inson

ongiga, ayniqsa, o'sib kyelayotgan avlod ta'lim-tarbiyasiga ta'siri ham kuchayib bormoqda

Intyernyet global tarmoq sifatida foydalanuvchilarga ko'pgina qulayliklarni yaratib byermoqda. Avvalo shu narsa muhimki, Intyernyet orqali yangiliklar ommaga tyez yyetib boradi, unda joylashtirilgan xabarlar orqali jahon bo'ylab turli ma'lumotlarni tyezkor egallab boramiz. Yana bir jihati shuki, tarmoq ijodkorlar faoliyatiga ta'sir ko'rsatib, ijod namunalarini ham o'zgartirmoqda.

Bugun, Intyernyetda nafaqat mahoratli mutaxassislar, balki byevosita ishqibozlar, ya'ni Intyernyetdan foydalanuvchining o'zi ham ma'lumot va axborot yuborish hamda tayyorlash imkoniyatiga ega. Yuqorida ta'kidlab o'tilgan qulayliklardan tashqari, yana bir muhim jihat — Intyernyet tizimining o'zida turli shakldagi ma'lumotlarni, ya'ni matn, grafika, ovoz va tasvirni mujassam etish imkoniyati mavjudligidir. Bu albatta, madaniyat va san'at ahli ijodiga muhim o'zgarishlar olib kirmoqda.

Turli elyektron tyexnologiyalarining jadal rivojlanishi ijodiy faoliyatda ham namoyon bo'lib bormoqda. Masalan, rassomchilik, amaliy bezak va kino san'atida tasvir yaratish va balki matnli ma'lumotlardan ham byevosita foydalanilishda turlicha dasturlarni qo'llaydilar Ma'lumki, vidyeotasvir yoki fotosuratlarni taqdim etish ham ko'pgina yangi usullar orqali byeriladi. Ko'rib turganingizdyek, ijodiy jarayon bir nycha xil axborot uzatish usullarining uyg'unlashib kyetishiga olib kyelmoqda.

Ma'lumki, inson qadimdan go'zallikka havas qilgan, uning oldida lol bo'lgan va mualliflarni e'zozlab kelgan. San'at va madaniyat asarlari insonga ma'naviy oziqa bag'ishlaydi. Shu sababli ham ularni noyob durdona sifatida ardoqlab keladi.

Ilmiy-texnika taraqqiy etib, komputer va axborot texnologiyalari rivojlansada san'atga bo'lgan qiziqish aslo so'nmaydi. Haqiqiy san'at va madaniyat durdonalari insonning qalbiga, ruhiy dunyosiga ta'sir etadi va allanechuk hissiyotlar uyg'otadi. Ular insonlarga muhabbat va nafrat, quvonch va qayg'u tuyg'ularini to'g'ri anglash va ularni e'zozlashni o'rgatadi.

Hozirgi ilm-fan jadal rivojlangan bir davrda ko'pgina mualliflarimiz o'z ijodida yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda raqamli texnika vositalaridan samarali foydalangan holda asarlar yaratmoqdalar. Ular o'z mahoratlarini yangi taraqqiyot texnologiyalari bilan uyg'unlashtirmoqdalar.

Afsuski, bunday uyg'unlik alohida ijodiy faoliyatga salbiy ta'sir etishi ham mumkin. Bu uyg'unlik profyessionallik va mahoratning o'rmini bosishi qiyin kyechadi. O'z ijodida yangi axborot-kommunikatsiya tyexnologiyalari hamda raqamli tyexnika vositalaridan samarali foydalanayotgan har qanday ijodkor uchun bu vositalar ularning ijodini boyituvchi vosita bo'lmoqda. Shu bois, bugun madaniyat va san'at xodimi ham kompyutyer, ham diktofon, ham kamyera, ham fotoapparat kabi vositalardan foydalana bilishi darkor. Lyekin bu dyegani univyersal shaxs bo'lish shart dyegan ma'noni anglatmaydi.

Bu — profyessionallik va mahoratning boyitilishidir. Shu sababli ham umumta'lim maktablaridanoq va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, kyeyinroq oliy ta'lim muassasalarida talaba-yoshlarga buning uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Ular byevosita olgan bilimlarini amaliyotga va ishlab chiqarishga tatbiq etish, shu bilan birga, amaliyotni nazariya bilan birgalikda samarali olib borishga erishish yo'llarini ham o'rganadilar. Talabalarimiz o'z ijodlarida har qanday tyexnikani qo'llash va ulardan foydalanishni bilishlari zamon talabidir.

Darhaqiqat, yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, shuningdek, Intyernyetning rivoji, fan, madaniyat va san'at sohasida kyeng qo'llanilishi va shuning natijasida ro'y byerayotgan jadal rivojlanish jarayoni zamonaviy ijodiy faoliyatlarga syezilarli o'zgarishlar olib kyelayotganini ko'plab sodir bo'layotgan yangiliklar ham isbot etadi.

Intyernyetning rivoji unda o'z sahifasiga ega bo'lganlarning muxlislarida qiziqarli axborotlarning qog'oz variantiga ham qiziqishlari ortib borayotganini ko'rsatmoqda. Xususan, vyeby-muhitda elyektron nusxasiga ega bo'lgan axborot vositalari bugun yangi muxlislarni yanada jalb etishga erishmoqda. Bundan tashqari, vyeby-muhitdagi faoliyat va Intyernyetda axborotlarni doimiy yangilanib borishi bu sohada muvaffaqiyatli raqobat imkonini yaratmoqda.

Hozirgi davrda ijodkorlar oldida nafaqat moddiy borliq, balki virtual olamda ham ijoq qilish imkoniyati paydo bo'ldi. Internet deb atalmish bu imkoniyat vositasi sahifalarini varaqlab, go'zallik naqadar cheksiz xilma-xillikka ega ekanligidan hayratga tushish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, bugungi taraqqiyot tufayli: kompyuter yordamida, multimedya vositasi va Internet orqali ijodkorlar o'z ijod namunalari yanada ko'proq muxlislar e'tiborida, tezroq havola etish imkoni yaratildi.

Istiqlol sababli san'at ahli mumtoz myeros bilan yangi jahon san'ati va madaniyati yutuqlarini uyg'unlashtirib, go'zal, yorqin va qiziqarli asarlar yaratib, ularni jahon ahli e'tiboriga havola etish baxtiga muyassar bo'ldi, bu esa ijodkorlarimizni yangi asarlar yaratish sari chorlaydi. Davr ruhiga va milliy an'analarga munosib san'at durdonalari ham hayotda, ham virtual olamda o'z ixlosmandlarini doimo bahramand etishiga ishonchimiz komil.

Zamonaviy madaniyat va san'atni keng targ'ib etuvchi vosita esa kompyuter tyexnologiyalaridir. Kompyuter tyexnologiyalari va Internet ijodkor uchun o'z asarlari bilan turli ko'rgazmalarda qatnashish, tomoshabin bilan jonli muloqot qilish imkoniyatini ham baxsh eta oladi. Global tarmoqda sayt orqali tyezkor va hozirjavob axborot almashuvidek imkoniyatni taqdim etadi.

2.3. O'quvchilarning kompyuter o'yinlari va uyali telefonlarga bog'lanib qolishlarining ayrim sabablari

Mamlakatimizda jamiyatni kompyuterlashtirish o'tgan asrning 90-yillaridan boshlab jadal rivojlana bormoqda. Kompyuterlashtirish barcha sohalarga kirib keldi. Kompyuter haqiqatdan ham keng tarmoqli vaziyatlarni bajaradi. Radio va musiqa eshittirish, filmlar ko'rish, matn terish, rasmi ob'yektlar va animatsiyalar yaratish, telefon va kalkulyator vazifasini bajarish, global tarmoqlarga ulanish, kompyuter o'yinlarini oynash va hakazo.

Bu bilan u insonlarga cheksiz imkoniyatlar o'chog'ini ochib bermoqda. Kompyuter texnikalari mukammallashgan sari kompyuter o'yinlari ham mukammallashib insonlarni o'ziga jalb eta boshlagan. Hozirgi kunda kompyuter

o`yinlari shunchalik rivojlanganki, dasturlovchilar o`yinlarni real hayotga yaqin holdagi grafiklarga va tovushlar bilan boyitgan holda yaratmoqdalar. Bugungi kunda psixologlar tomonidan tadqiqotlar olib borish uchun va terapevtik muolajalar o`tkazishda qo`llaniladigan maxsus yangi o`yinlar paydo bo`la boshladi.

G`arb mamlakatlarida bolalar kasalxonalariga maxsus davolovchi o`yinlar, dasturlar yozilgan kompyuterlar o`rnatish boshlandi. Kompyuter o`yinlarining ba`zilari o`smir intellektining rivojlanishiga, qiyin sharoitlarda mustaqil qaror qabul qilish ko`nikmalarining shakllanishiga, mantiqiy fikrlashning oshishiga, ijodiy, ruhiy rivojlanishiga yordam beradi. Lekin hozirgi kunda tibbiyot xodimlari, psixologlar, pedagoglar, sotsiologlar tomonidan jamiyatni kompyuterlashtirishning ijobiy tomonlari bilan birga o`smirlarni kompyuter internet va asosiysi kompyuter o`yinlariga bog`lanib qolish holatlari tez-tez kuzatilayotgani haqida bahs-munozaralar ko`plab kuzatilyapti. Ularning ta`kidlashlaricha o`smirlarda kompyuter o`yinlariga qiziqish psixologik tobelik ko`rinishiga o`tib ketmoqda. Agarda jamiyatni kompyuterlashtirish bundan keyin ham o`sib borishini, kompyuter texnologiyalaridan esa keng aholi ommasi foydalanishini hisobga olsak, bu muammo vaqt o`tishi bilan yana ham kuchayishini sezish qiyin emas.

Psixologik tobelik-bu shaxsning biror predmetga bog`lanib qolishidan iborat zararli odat bo`lib, buning oqibatida o`smir psixikasida salbiy o`zgarishlar kelib chiqadi (ingliz tilidan addiction-tobelik, moyillik, yomon illat).

Kompyuter o`yinlariga tobe bo`lib qolgan o`smir oddiy hayotdan, zerikishidan, yolg`izlikdan, hayot qiyinchiliklaridan qochish maqsadida kompyuter o`yinlariga tez-tez mutojaat qilishni boshlaydi. Barcha tobelik vositalar, hattoki, kompyuter o`yinlari ham, ijobiy hissiyotlarni paydo qiladi (xursanchilik, baxtiyorlik, rohat, ruhiy va jismoniy yengillikni sezish) va salbiy hissiyotlarni (xavotir, xafalik, aybdorlik hissi, o`zini yolg`iz his etish) bartaraf etadi.

Bolalar va o`smirlar kompyuter o`yinlarini bir necha marta o`ynaganidan so`ng kompyuter qahramoni va undagi vertual olam, uning real hayotdagi qondirilmagan ehtiyojini qondirishga imkon berayotganini tushunadilar. Bu kompyuter qahramonini hurmat qilishadi, uning fikriga qo`shilishadi, u kuchli,

ko`plab dushmanlarni bir zumda yo`q qilib, g`alaba qozona oladi. Bolalar va o`smirlar uchun bu rolga kirishish va o`zini “u” deb hisoblash yoqimlidir. Chunki ularning ko`pchiligi real hayotda bunday his tuyg`uni his qilishlari qiyin. Ular kompyuter o`yinlarini o`ynagan sari “o`z real hayoti” va “o`z virtual hayoti” orasidagi farqni seza boshlaydi, buning natijasida real hayotdan uzoqlashib, kompyuter o`yinlariga intilish yanada kuchayadi. U kundalik hayotdagi muammolarini kompyuter o`yinlari orqali kompensatsiya qilishni boshlaydi. Shubhasiz bu jiddiy muammolarni keltirib chiqaradi.

O`smirni kompyuter o`yinlarida quyidagilar o`ziga jalb etadi:

- yangi vosita va ko`nikmalarni qo`llash orqali o`yinda qo`yilgan topshiriqlarni yechish;

- dushman ustidan g`alaba qozonish, maqsadga erishish, musobaqa;

- aqliy topshiriqlarni yechish va bunda yutuqlarga erishish;

- o`yinda qandaydir yangilik yaratish imkoniyati, masalan oldin mavjud bo`lmagan predmet va vositalarni;

- o`yinning tuzilishi, grafikasi, ranglari, sifati, his-hayajonligi ham o`smirni o`ziga tortadi.

Hozirgi kungacha olib borilgan tadqiqotlarning ko`rsatilishicha, o`smirlarning reytingida birinchi raqam bilan “urush” elementlari mavjud bo`lgan o`yinlar turadi. Undan so`ng fikrlashga oid o`yinlar, futbol o`yini, o`yin-sayohatlar turadi.

Kompyuterga tobe o`smirlarning xulqida va organizmda quyidagi salbiy o`zgarishlarni kuzatishimiz mumkin:

- ortiqcha tez charchab qolish;

- o`qishda o`zlashtirishning yomonlashuvi;

- yaqin kishilari bilan muloqot qilishdan qochish, “o`z qobig`iga o`ralib qolish” holati yuz beradi, tanqidni ko`tara olmaslik;

- yolg`onchilik va aldovga moyillikning ortishi;

- qo`l nerv to`qimalarining zararlanishi, bu muskullarning ko`p muddat ishlashidan kelib chiqadi;

- doim pul so`rash;
- ko`z yoshlarining qurishi va ko`zning qizarib ketishi;
- boshdagi og`riqlar;
- to`g`ri ovqatlanmaslik, ovqatlanish jarayonining buzilishi;
- shaxsiy gigiyenaga amal qilmaslik;
- uyquning buzilishi, uxlash tartibining buzilishi, uxlash tartibining o`zgarishi.

O`smirlardagi mazkur sifatlar alohida-alohida olingnada xavf unchalik kuchli emas, bu o`smirlarda jinsiy yetilish inqirozi yoki hayotning og`ir vaziyatlarga munosabati bilan ham bog`liq bo`lishi mumkin. Pedagog va ota-onalar bunday holatlarda juda ehtiyot bo`lishlari kerak, bolaga o`z shubhalarini sezdirmay, uning xulqidagi o`zgarishlarni tushunishga harakat qilishlari kerak. Agarda ko`nikmalarning bir nechtasi jamlansa, bu ota-onalarni xavotirga solishi kerak.

Mamlakatimizda bu muammo hali chuqur ilmiy o`rganilmagan va bu sohadagi muammolar yangi ilmiy o`rganilmagan va bu sohadagi muammolar yangi ilmiy izlanishlar olib borish kerakligini ko`rsatmoqda. Kompyuter o`yinlariga tobelikning oldini olish uchun bolalar va o`smirlar hayotining turli jabhalarida: ta`lim muassasalarida, oilada, mahalla hamda dam olish maskanlarida profilaktik ishlarni olib borish lozim.

Internet va mobil telefonning servis funksiyalar

Mobil telefonning servis funksiyalariga quyidagilar kiradi:

- SMS (Sport Messaging Service);
- Bitta apparat uchun ikkita raqam berilishi;
- Qo`ng`iroqni boshqa raqamga yo`naltirish;
- Chaqiruvchini to`xtatib turish;
- Xizmatlar uchun avtomatik to`lov;
- Raqamni ko`rsatish;
- Ovoz bo`yicha raqam terish;
- Ovoz yordamida boshqarish;

- Baland ovozli aloqa;
- Diktofon;
- Ochiladigan qopqoq (flip);
- Apterfeys tili;
- Soat (sana);
- Budilnik;
- Telefon daftari va organayzer;
- Shaxsiy kompyuter bilan aloqa uchun infraqizil port;
- WAP (internet) bilan bog'lanish;
- GPRS;
- Musiqani o'zgartirish (almashtirish);
- Ekranni yoritish variantlari;
- O'yinlar;
- Yozuv daftarchasi hajmi;
- Valyuta konvertori;
- Usti panel yoki kopusni almashtirish imkoniyati;
- Kalkulyator va boshqa funksiyalar.

SMS (Sport Messging Service) – qisqa xabarlar xizmati bo'lib, u peyjerni eslatadi. Qachonki nimadir xabar qilish zarur bo'lsa-yu, lekin abonentning telefoni band bo'lsa yoki umuman javob bermasa, ushbu tizimdan foydalaniladi. Abonent bu vaqtda gaplashayotgan bo'lsa ham ham, apparat o'chirilgan yoki tarmoqning xizmat doirasidan tashqarida bo'lsa ham, jo'natilgan xabarni oladi. Operator xabarni saqlab turib, birinchi imkoniyat paydo bo'lishi bilan abonentga yetkazadi.

Xabarning kattaligi kirill harfida 70 ta belgidan (matn terish oynasida bir yarim qatordan), lotin harfida 160 ta belgidan (matn terish oynasida to'rt qatordan) oshmasligi kerak.

Bitta apparatga ikkita raqam berilganda bitta SIM kartaga birdaniga ikkita telefon raqamiga mos keladigan identifikatorlar yoziladi. Har bitta raqam o'z xizmatlar majmuiga ega bo'lib, unga o'z ta'rif rejasiga ko'ra xizmat ko'rsatiladi. Har bitta raqam uchun alohida to'lov hisobi joriy etiladi. Bu bitta raqamdan ish

yuzasidan, ikkinchi raqamdan shaxsiy maqsadlarda foydalanishda qulay. Birinchi raqamning hisobi kompaniya tomonidan to'lansa, ikkinchi raqam uchun abonentning o'zi to'laydi.

Qo'ng'iroqni boshqa raqamga yo'naltirish abonent uyda yoki ofisda bo'lganda qulaydir. Chunki shunda uyali telefon orqali gaplashishga pul sarflab o'tirmasdan, adatsdagi shahar telefonidan foydalansa bo'ladi. Bunday holatda qo'ng'iroqlarni kiritilgan raqamga yo'naltirish haqida buyruq beriladi, natijada barcha qilingan qo'ng'iroqlar avtomatik tarzda ushbu raqamga yo'naltiriladi.

Chaqiruvchini to'xtatib turish boshlangan muloqotni to'xtatib turish, ayni paytda suhbatdoshni aloqa tarmog'ida qoldirish imkonini beradi. Bunday vaziyat ikkinchi chaqiruvni qabul qilish yoki boshqa bir abonentga zudlik bilan qo'ng'iroq qilish zarurayati tug'ilganda juda qo'l keladi. So'ng yana dastlabki muloqotni to'xtagan joyidan davom ettiraverasiz.

Xizmatlar uchun avtomatik to'lovdan muayyan xizmat hajmi uchun oldindan pul to'lashda foydalaniladi. Ushbu holat bo'yicha axborot SIM kartaganing xotirasiga kiritiladi va so'zlashuv jarayonida o'sha summadan joriy tarif bo'yicha pul chegirib qolaveradi. Ayrim telefonlarda so'zlashuvlar uchun joriy harajatlar va hisobda qolgan summa (mablag') displeyda aks etadi.

Raqamni ko'rsatish funksiyasi yordamida telefon egasi o'zi yo'qligida unga kim qo'ng'iroq qilganligini bilish imkoniga ega bo'ladi.

Ovoz bo'yicha raqam terish ayniqsa qo'lingiz band bo'lganda qulay funksiyadir. O'zingizga kerakli abonentning ismi yoki familiyasini aytsangiz bas, qarabsizki uning telefon raqami teriladi. Albatta, buning uchun siz oldindan telefongiz xotirasiga ovozli etalon yozuvi kiritib qo'ygan bo'lishingiz kerak. Odatda uning xotirasiga o'ntagacha belgini yozish mumkin.

Ovoz yordamida boshqarish xuddi ovoz bo'yicha raqam terish funksiyasiga o'xshab ketadi. Bunda telefon menyusining ba'zi bandlariga ularning nomini aytib murojat qilish mumkin bo'ladi.

Baland ovozli aloqa ovoz bo'yicha raqam terish funksiyasi bilan birga avtomobil garniturasiga ortiqcha sarf-xarajat qilishdan xalos bo'lish imkonini

beradi. Faqat buning uchun ushbu funksiyalar apparatga juda yaxshi o'rnatilishi lozim.

Apparatga o'rnatilgan diktafon suhbat paytida juda qulaydir. Qog'oz, organayzer va boshqa narsalarni izlashga vaqt ketkazmasdan, diktofon yordamida zarur axborotlarni yozib olish mumkin. Shunchaki o'rnatilgan diktofonlardan telefon so'zlashuvlarini yozib olishga mo'ljallanganlari afzal.

Ochiladigan qopqoq (flip) klaviaturani tasodifan bosilib ketishdan muhofaza qiladi. Chaqiruvchiga javob berish uchun faol flipni ochish kifoya, uni yopsangiz muloqot tugaydi.

Tebranishli chaqirishda telefoningiz chaqiruvini qabul qilgan paytda tovush chiqarib atrofdagilarni bezofta qilib o'tirmasdan, sezilarli darajada titray boshlaydi. Bu funksiya teatr, konsertlarda qo'l keladi. Aksar telefon modellariga tebranishli chaqirishdan qo'ng'iroq rejimlarini o'rganish mumkin. Bunday holda mabodo qo'ng'iroqni eshitmay qolsangiz ham, telefoningiz tebranib, sizni chaqiruvdan ogoh qiladi.

Interfeys tili menyuni aks ettirish tilini tanlash imkonidir. Bu xorijiy tillarni bilmaydigan va telefon bilan ishlash bo'yicha amaliy ko'nikmalarga ega bo'lmagan kishilarga juda asqotadi.

Telefonning displeydagi soat ko'rsatkichi yordamida vaqtni bilib olishingiz mumkin.

Budilnikning ahamiyatini tushuntirib o'tirishga hojat bo'lmasa kerak. Faqat ba'zi modellarda hatto apparat o'chirilgan bo'lsa ham, budilnik ishlashini ta'kidlab o'tishni istardik.

Telefon daftari va organayzer ayniqsa ishbilarmon, tadbirkor shahslar uchun juda zarur. Odatda telefon daftari apparatning xotirasida ham, SIM-kartasida ham joylashadi. Telefon daftariga 150 tadan ortiq raqim sig'adi. Mabodo biror kishi haqida ushbu ma'lumotni zudlik bilan yozish kerak bo'lsa-yu, qog'oz-qalamingiz, noutbusingiz bo'lmasa, telefoningizga yozib qo'ying.

Shaxsiy kompyuter bilan aloqa uchun infraqizil port kompyuter bilan o'tkazgichsiz bog'lanish funksiyasidir.

WAP bilan bog'lanish bevosita mobil telefonidan hyech qanday qo'shimcha jihozlarsiz (modem va noutbuksiz) Internet sifatлари bilan bog'lanish imkoniyatini beradi.

GPRS – GPRS telefon orqali Internet tarmoqlariga doimiy bog'lanishni ta'minlash funksiyasidir. Tarmoqda ishlash uchun kompyuterdan (masalan, noutbukdan) yoki elektron organayzerdan foydalanish mumkin. GPRS dan foydalanuvchilar xuddi Internetga o'tkazgich orqali bog'langandek undan to'liq foydalanish imkoniga ega bo'ladilar. Abonent Internetdan uzilmagan holda qo'ng'iroq qilishi va qo'ng'iroqlarni qabul qilishi mumkin. Bunda efir vaqti uchun emas, balki bayt hisobida jo'natilgan (olingan) axborot uchun pul olinadi.

Musiqani o'zgartirish (almashtirish) qo'ng'iroq uchun o'zingiz istagan musiqani o'rnatish funksiyasidir. Odatda telefonga tanlashingiz uchun bir nechta musiqa yozilgan bo'ladi.

Ekarni yoritish variantlarining ahamiyati shundaki, o'z didingizga qarab ekranni yorituvchi rangni tanlash imkoniga ega bo'lasiz. Agar siz "raqamni aniqlash" xizmatini faollashtirgan bo'lsangiz, telefon sizga kim qo'ng'iroq qilganiga qarab displeyni muayyan rangda yoritiladi.

O'yinlar dam olish va kutish soatlaringiz maroqli o'tishiga yrdam beradi.

Yozuv daftarchasi hajmi telefonning xotirasida saqlanishi mumkin bo'lgan telefon raqamlari va abonentlarning ismlari sonidir.

GSM apparatlarining yozuv daftarchalari ikki qismdan iborat bo'ladi. Ularning bir qismi SIM-kartada, boshqa qismi esa modelga qarab telefonning o'zida saqlanishi mumkin.

Valyuta konvertori turli valyutalar bilan ish ko'ruvchi kishilar uchun foydali bo'lgan funksiyadir.

Ustki panel yoki korpusni almashtirish imkoniyati qanday funksiyaligi o'z nomidan ham bilinib turibdi. Bu apparatning yuzasi yoki korpusi tiralganda, darz ketganda qo'l keladi.

Shuningdek, fotokamerali, videokamerali, MP3fayllarni qayta tiklay oladigan va boshqa funksiyalarga ega mobil telefonlar ham bor.

XULOSA

Aniq ma'lumotlarga asosan 2011 yil oxirida Xitoyda internetdan foydalanuvchilar soni 553 million kishiga yetgan. Bu mamlakatdga aloqadir veb saytlar soni 2,3 milliondan oshgan. O'zbekiston internet tarmog'idan foydalanuvchilarning umumiy soni 2006 yilda 855 ming ta bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunga kelib 2202,9 mingtani tashkil qilmoqda (10.04.2012 y). Respublikamiz xududlar qismida ko'rmoqchi bo'lsak Toshkent shaxrida 1113 mingtani (aholining 15,09 % ini Qashqadaryo viloyati 203 mingtani va Samarqand viloyati 182 mingtani tashkil qilmoqda eng kam internetga ulanganlar soni Qoraqolpog'iston Respublikasi (20 ming) va Jizzax viloyatida (20 ming) kuzatilmoqda).

Ko'rinib turibdiki, axborotlashgan jamiyatni bosqichma-bosqich shakillantirib borish uchun texnologik zamin yaratib berilmoqda. Axborotlashgan jamiyatning shakillanib borishida quyidagi takliflarni tavsiya qilamiz.

1.Ushbu jamiyat avvalambor taraqqiy etgan industrial jamiyat negizida shakillanadi. Jaxonda xech bir davlat axborotlashgan jamiyatga industrialni cheklab o'tgani yo'q. Shuning uchun yangiliklardan doimiy ravishda xabardor bo'lib borish.

2.Milliy iqtisodimiz xizmat ko'rsatish sohasining tarkibiy jihatdan o'zgarishi o'z o'rnida axborot xizmatlari sohasiga ham ta'sir ko'rsatadi, ya'ni ularning yalpi o'sib borishi kuzatilmoqda. Shu munosabat bilan bunday o'sishni doimo nazarda tutish.

3. Moddiy ishlab chiqarish sohasidagi o'zgarishlar ishlab chiqarish vositalari va mehnat unumdorligining o'sishi bilan tavsiflanishi natijasida ishchi kuchidan oqilona foydalanmoqda. Bo'shagan ishchi kuchining boshqa sohalariga jalb qilinishi mutaxassisning malakaviy jihatdan tayyorgarlik darajasiga bog'liq bo'lmoqda. Taraqqiyot jadal ketmoqda. Shu munosabat bilan buni cheklay olmaymiz, lekin nazoratni kuchaytirish kerak.

4.Yosh ulg'ayib kelayotgan yigit va qizlarning ruhiyatida bo'layotgan o'zgarishlarni bilish va internetdan to'g'ri foydalanishini ta'minlash lozim.

5. Mahalla, maktab va oila hamkorligida yoshlarning ruhiy rivojlanishini nazorat qilish va bo'sh vaqtlarini umumli tashkil etishni yo'lga qo'yish lozim.

6. Yoshlarga uyali telefonlardan foydalanish madaniyatini o'rgatish.

7. Uyali telefonlarning salbiy oqibatlari yuzasidan yoshlarga tushunchalar berish va maktablarda bu borada tarbiyaviy soatlar olib boorish.

Yuqoridagilarni e'tiborga olgan holda ta'lim muassasalarida internetdan foydalanish shu sohani yuqori darajaga ko'tarish sifatli ish yuritish va bolalarning sog'lom turmush tarzini olib borishga katta yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li // O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild. T.: "O'zbekiston", 1996.
2. Karimov I.A. O'zbekiston - bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li // O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild. T.: "O'zbekiston", 1996..
3. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy isloqotlar chuqurlashtirish yo'lida // Vatan sajdagoq kabi muqaddasdir. 3-jild. T.: "O'zbekiston", 1996.
4. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr busaqasida: xavfsizlikka taqdid, barharorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari // Xavfsizlik va barharor taraqqiyot yo'lida. 6-jild. T.: "O'zbekiston", 1998. 31-261 b.
5. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizasiya va isloq etishdir // o'zbek xalqi hech qachon. hech kimga haram bo'lmaydi. 13-jild. T.: "O'zbekiston", 2005. 174-222 b.
6. Boymurodov N. "Amaliy psixologiya". Toshkent – 2008 y.
7. Daminov Q. "Psixologik atamalar izohi". Samarqand – 1994y.
8. F. I. Xaydarov, N. I. Xalilova "Psixologiya fanlarini o'qitish metodikasi". Toshkent – 2006y.
9. G'oziev E.G'. "Psixologiya". 1994y.
10. Ganobolin F. N. "Psixologiya". Toshkent – 1976y.
11. Ivanov P. I. "Umumiy psixologiya". Toshkent – 1967y.
12. Nishonova Z. T. "Bolalar psixologiyasini o'qitish metodikasi". Toshkent – 2005y.
13. Nishonova Z. T. "Eksperimental psixologiya". Toshkent – 2006y.
14. Petrovskiy A. V. "Umumiy psixologiya". Toshkent. "O'qituvchi" – 1992y.
15. X. Ibragimov, U. Yo'ldoshev, X. Bobomirzaev "Pedagogik psixologiya". Toshkent – 2007 y.

16. Zunnunova D. "Bolangizni bilasizmi?". Toshkent – 2009 y.
17. Milliy istiqlol g'oyasi. T., "O'zbekiston", 2005.
18. Zakonodatelnie akti R.U, sostavlyayushie pravovuyu osnovu gosudarstvennoy politiki v informasionnoy sfere.
- 19.."Iqtisodiy va axborot xavfsizlik zamonaviy muammolari" mavzuidagi yosh olimlarning ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami (20 dek. 2005 y.). Nashr uchun mas'ul N. Baxadirov. Toshkent.: JIDU, 2006.
20. Informasiya. Diplomatiya. Psixologiya. M.:"Izvestiya", 2002 - 10.
V. I. Xozikov. Informasionnoe orujie. Sankt-Peterburg. Izdatelskiy dom "Neva", 2003.
- 21.. Lopaten V. N. Informasionnaya bezopasnost v Rossii. Izd. MVD Rossii i Sankt-Peterburgskogo universiteta. 2000 - 311b.
- 22..Ermakov Yu.A. Manipulyasiya lichnostyu: Smisl, priemi, posledstviya- Ekaterinburg, 1995
- 23..Politologiya: Ensiklopedicheskiy slovar/Obsh.red. i sost.: Yu.I.Averyanov.- M.:1993
- 24..Grachev G.V. Informasionno-psixologicheskaya bezopasnost lichnosti: sostoyanie i vozmojnosti psixologicheskoy zashiti-M 2002
- 25..Konsepsiya nasionalnoy bezopasnosti Respubliki Uzbekistan.
- 26..Doktrina informasionnoy bezopasnosti RF.
- 27..Proekt konsepsii informasionnoy bezopasnosti Respubliki Uzbekistan.
- 28..Yarochkin V.I. "Informasionnaya bezopasnost". M. Fond "Mir" 2003.
- 29..Grachev G.V. "Informasionno-psixologicheskaya bezopasnost lichnosti" M. Fond "Mir" 2004.
- 30.Lopatin V.N. "Informasionnaya bezopasnost Rossii" Connect.1997.
- 31..Lopatin V.N. "Duma o zakone, informasionnoy voyne i kiberneticheskix" Kompyuter i jizn. 1998. № 7;
- 32..I. Panarin. "Informasionnaya voyna i mir"
33. Bozorova Z.E. Ochiq axborot tizimlarida axborot-psixologik xavfsizlik. fanidan ma'ruzalar matni. Toshkent-2010

34. Rashidov I. Uyali telefonlar Toshkent “Davr press”. 2010.
35. O’zbekiston Matbuoti. Jurnal. 2012 y. -1.2 soni
36. Yoshlarga do’stlik xizmatlarini ko’rsatish va “Teng-tengi bilan” prinsipi asosida trenintlar o’tkazish bo’yicha qo’llanma. Toshkent. 2005 y.
37. Tafakkur jurnali. № 1-2. 2011 yil
38. Internetdagi ijtimoiy tarmoqlar. Xuriyat gazetasi. 11.04.2012 y. №16. -1-4 bet
39. Qora mushuk panjasi. 21 asr gazetasi. 03.05.2012 y. 18 son-07 bet
40. Internet bugun va ertaga. O’zbekiston ovozi gazetasi. 26.04.2012 y. 4 b.
41. Davr talabi. Vaziyat gazetasi. 19.04.2012 y №16, 6-bet
42. BMI ni yozish, rasmiylashtirish va himoya qilish bo’yicha uslubiy ko’rsatmalar. Jizzax 2012 y. Alimov N va boshqalar
43. Fermer. II jurnal. 2011 y. -1-3 sonlari.
44. Ziyonit tarmoqlari
Internet saytlari:
www.press-servis/.uz.
[www. Gov.uz](http://www.Gov.uz).
www. Iscs.uz
www. Edu.uz.
www. Ziyonet. Uz
www. Typ.uz
www. Uza.uz
www.jahon.tiv.uz.
www.press-uz.info.
www.uzreport.com.